

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**



**“Bank hisobi, tahlil va audit” fanidan**  
**(6-semestr uchun)**  
**amaliy mashg‘ulotlar ishlanmasi**

<b>Bilim sohasi:</b>	200000	- Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
<b>Ta’lim sohasi:</b>	230000	- Iqtisod
<b>Ta’lim yo‘nalishi:</b>	5230700	- Bank ishi va audit

**Qarshi-2023 y**

Fanning amaliy mashg'ulot bo'yicha ishlanmasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti 2022 yil 29 avgustdagi №-310 son bilan ro'yxatga olingan fan dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:**

**Jumayeva G.J.**- *“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida dotsenti*

**Taqrizchilar:**

**Qurbonov A.B.**

*QarMII “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi.*

**Butunov Sh.B.**

*“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida katta o'qituvchisi*

Fanning ma'ruzalar matni Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasining 2022 yil “ 7 ” noyabrdagi 6 -sonli yig'ilishida hamda “Iqtisodiyot” fakulteti Uslubiy Komissiyasining va 2022 yil “ 19” noyabrdagi 4 -sonli yig'ilishida muhokama qilib tasdiqlangan.

“Iqtisodiyot” fakulteti

A.Qurbonov

Uslubiy komissiya raisi:

Kafedra mudiri


A.Alikulov

## Mavzu: Valyuta operatsiyalari hisobi (1-amaliy)

**1-topshiriq.** Quyida berilgan savollarni o'rganib chiqing va og'izaki javob bering.

1. O'zbekiston Respublikasi valyuta munosabatlarini tartibga solish qanday amalga oshiriladi?
2. Valyuta operatsiyalarini tashkil etish va hisobi haqida nimalarni bilasiz?
3. Valyutalarini sotib olish va sotish bilan bog'liq operatsiyalar hisobi yuzasidan qanday buxgalteruya yozuvlari yoziladi?
4. Valyuta ayirboshlash shahobchalarida naqd pul va chet el valyutasi hisobini yuritish tartibi qanday amalga oshiriladi va ushbu yo'nalishda qanday buxgalteriya provodkalri beriladi?

**2-topshiriq.** Валюта операциялари turi bo'yicha 5-minutli "Esse" yozing va asoslab bering. "Esse" yozishda quyidagi ketma-ketlikka amal qiling:



**3-topshiriq.** Quyida keltirilgan o'tkazmalar joriy xalqaro o'tkazmalarining qaysi turiga tegishli ekanligini aniqlang va ushbu ketma-ketliklar qatorini yodda saqlang:

- tashqi savdoni, boshqa joriy faoliyatni yuritish, shu jumladan xizmatlar ko'rsatish (ishlar bajarish) munosabati bilan to'lanishi lozim bo'lgan barcha to'lovlar;
- foizlar va boshqa daromadlar shaklida, shu jumladan bankomonatlari, kreditlar, lizing bo'yicha foizlar va boshqa daromadlar shaklida, shuningdek boshqa investitsiyalardan olinadigan sof daromad shaklida to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlar;
- kreditni (qarzni) to'lash davrida qarzning olingan, shartnomada ko'rsatilgan to'lash davrlari soniga nisbati sifatida hisob-kitob qilingan qismining ikki baravaridan ortiq bo'lmagan miqdordagi summani to'lash;

- nosavdo tusidagi pul o‘tkazmalari.

**4-topshiriq.** Bank tomonidan chet el valyutasi uchun to‘lov jismoniy shaxs (YaTT) tomonidan milliy valyutada operatsiya bajariladigan kundagi sotish kursida amalga oshirilganda va tegishli tasdiqlovchi hujjatning (chek vaboshqa) asl nusxasi mijozga berilganda qanday buxgalteriya provodkalri beriladi?

- Debet 22617000-----;
- 22618000-----;
- Kredit 23516000 -----;
- Debet 17409000 -----;
- Kredit 17101000- -----.
- ----- Xorijiy valyuta sotib olish uchun jismoniy shaxslarning

plastik kartalaridan o‘tkazilgan pul mablag‘lari;

- ----- Qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa ulovlar bo‘yicha plastik kartalardan xisobdan chiqarilishi lozim bulgan pul mablag‘lari bo‘yicha tranzit xisobraqam.

- ----- valyuta pozitsiyasi xisobvaraklari (balansda aks etadi);
- -----Xorijiy valyuta sotib olish uchun bank kassalariga naqd pullarni topshirgan jismoniy shaxsning plastik kartalaridan foydalangan holda o‘tkazilishi lozim bo‘lgan mablag‘lar bo‘yicha tranzit hisobvaraqlar.

- -----;
- ----- Jismoniy shaxslarning plastik kartochokalari.

**5-topshiriq.** Quyidagi buxgalteriya provodkalari mazmunidan kelib chiqib, valyuta operatsiyalari hisobi bo‘yicha masala tuzing.

a) 09002-sotib olish;

b) 09007-sotish.

- 1) Dt-10109000-Yuldagi nakd pullar va boshka tulov xujjatlari-5000000

- Kt-10101000- Aylanma kassadagi nakd pullar.-5000000

- Dt-10103000-Pul almashtirish shaxobchalaridagi nakd pullar-5000000

- Kt-10109000- Yuldagi nakd pullar va boshka

tulov xujjatlari.-5000000.

**Uyga vazifa.** Ma'ruzada berilgan matnni o'qing va matndan kalit so'zlarni ajrating.

**Mavzu: 1.2. Valyuta operatsiyalari hisobi (2-amaliy)**

**1-topshiriq.** Quyida berilgan misollar asosida buxgalteriya provodkalarini yozing.

Misolimizda keltirilganidek, bir kunlik operatsiyalar jarayonida bank sotish va sotib olish orasidagi kursdan 12000 sum daromad ko'rdi. Buni 17101000 xisob raqamda (-12000) sum qoldiq qolgani orqali ifodalasak buladi. Ya'ni 17101000 xisob raqami qoldig'ini 45401-" Xorijiy valyutalarda ko'rilgan foyda" xisob raqamiga o'tkazamiz. Ushbu holatda qanday buxgalteriya o'tkazmasi beriladi:

Dt----- - 12000

Kt----- -12000

Svop bitimi tuzilayotganda, ushbu bitim ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlarida svop bitimi yakunidagi ayirboshlashga lozim bo'lgan valyuta miqdorida qanday buxgalteriya o'tkazmasini amalga oshirish orqali aks ettiriladi:

a) agarda, bank svop bitimining birinchi qismi bo'yicha chetel valyutasini xarid qilayotgan bo'lsa:

Dt 92736 - "Svop shartlarida **sotib olish**";

Kt 96373 - "Svop shartlari bilan sotib olish kontr-hisobvarag'i";

b) agarda, bank svop bitimining birinchi qismi bo'yicha chetel valyutasini sotayotgan bo'lsa:

Dt 92732 - "Svop shartlarida **sotish**";

Kt 96371 - "Svop shartlari bilan sotish kontr-hisobvarag'i.

Ushbu holatlar yuzasidan boshlang'ich buxgalteriya hujjatlari ro'yxatini tuzing va esda saqlang.

**Uyga vazifa.** Chet el valyutasini sotib olish operatsiyalarining hamda valyutani qayta baholashdan keyin foyda va zararlarni aniqlashning buxgalteriya hisobi bo'yicha quyida berilgan masalalarni bajaring:

20\_\_ yil 14 sentabr holatiga jamlanma balans hisobotida hisobvaraqlarda quyidagi qoldiqlar ko'rsatilgan:

Hisobvaraq	Dollardagi kitob	Dollardagi kitob (\$1 uchun	So'mdagi kitob	Jami
------------	------------------	-----------------------------	----------------	------

	(AQSH dollarida)	8.092,13 so'm qayta baholash kursi bo'yicha)		
Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'idagi mablag'lar	\$1.000	8.092.130	8.000.000.000	8.008.092.130
Boshqa aktivlar			69.000.000.000	69.000.000.000
Jami: Aktivlar		—	77.000.000.000	77.008.092.130
Mijozlar ning mablag'lari	\$1.000	8.092.130	10.000.000.000	10.008.092.130
Boshqa majburiyatlar			67.000.000.000	67.000.000.000
Jami: majburiyatlar va kapital		—	77.000.000.000	77.008.092.130

1. Bankning mijozidan 1.000 AQSH dollari sotib olindi. 1 AQSH dollari uchun bankning sotib olish kursi 8.071,00 so'm

Sana 15.09.20\_\_yil

Qayta hisoblash kursi — 1 AQSH dollari uchun 8.092,13 so'm

1.000 AQSH dollari sotib olishni aks ettirish bo'yicha buxgalteriya yozuvlari:

Dollardagi kitob			So'mdagi kitob		
Dt 202XX- Mijoz hisobvarag'i	\$1.0 00		Dt 17101- «Valyuta pozitsiyasi hisobvaraqla ri»	8.071.0 00	
Kt 17101- «Valyuta pozitsiyasi hisobvaraqla ri»		\$1.0 00	Kt 202XX- Mijoz hisobvarag'i		8.071.0 00

Chet el valyutasidagi operatsiyadan foydani aks ettirgungacha bo'lgan jamlanma balans hisoboti:

Hisobvaraq	Dollardagi kitob (AQSH dollarida)	Dollardagi kitob (\$1 uchun 8.092,13 so'm qayta baholash kursi bo'yicha)	So'mdagi kitob	Jami
Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'idagi mablag'lar	\$1.000	8.092.130	8.000.000.000	8.008.092.130
Valyuta pozitsiyasi hisobvaraqlari	(1.000)	(8.092.130)	8.071.000	(21.130)
Boshqa aktivlar	-	-	69.000.000.000	69.000.000.000
Jami: Aktivlar	-	-	77.008.071.000	77.008.071.000
Mijozlar ning mablag'lari	-	-	10.008.071.000	10.008.071.000
Boshqa majburiyatlar	-	-	67.000.000.000	67.000.000.000
Jami: majburiyatlar va kapital	-	-	77.008.071.000	77.008.071.000

17101-hisobvaraqlarning kredit qoldig'i chet el valyutasidagi operatsiyadan 21.130 so'm miqdoridagi foydani ko'rsatmoqda. Foydani aks ettirish bo'yicha buxgalteriya yozuvi:

Dollardagi kitob		So'mdagi kitob		
Buxgalteriya yozuvi yo'q		Kt 17101- «Valyuta pozitsiyasi hisobvaraqlari»	21.130	
		Kt 45401-«Spot» bitimi bo'yicha xorijiy valyutalardagi foyda»		21.130

Foyda aks ettirilgandan keyin jamlanma balans hisoboti:

Hisobvaraq	Dollardagi kitob (AQSH dollarida)	Dollardagi kitob (\$1 uchun 8.092,13 so'm	So'mdagi kitob	Jami
------------	-----------------------------------	---	----------------	------

		<b>qayta baholash kursi bo'yicha)</b>		
Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'idagi mablag'lar	\$1.000	8.092.130	8.000.000.000	8.008.092.130
Valyuta pozitsiyasi hisobvaraqlari	(1.000)	(8.092.130)	8.092.130	
Boshqa aktivlar	-	-	69.000.000.000	69.000.000.000
Jami: Aktivlar	-	-	77.008.092.130	77.008.092.130
Mijozlarning mablag'lari	-	-	10.008.071.000	10.008.071.000
Boshqa majburiyatlar	-	-	67.000.000.000	67.000.000.000
Sof foyda (zarar)	-	-	21.130	21.130
Jami: majburiyatlar va kapital	-	-	77.008.092.130	77.008.092.130

2. Operatsiya amalga oshirilmadi. Qayta baholash va moliyaviy hisobotni tuzish.

Sana 30.09.20\_\_yil

Qayta hisoblash kursi — 1 AQSH dollari uchun 8.077,48 so'm

Chet el valyutasidagi hisobvaraqlar qoldiqlarini qayta baholashdan zararni aks ettirgungacha bo'lgan so'mdagi jamlanma balans hisoboti:

<b>Hisobvaraq</b>	<b>Dollardagi kitob (AQSH dollarida)</b>	<b>Dollardagi kitob (\$1 uchun 8.077,48 so'm qayta baholash kursi bo'yicha)</b>	<b>So'mdagi kitob</b>	<b>Jami</b>
Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'idagi mablag'lar	\$1.000	8.077.480	8.000.000.000	8.008.077.480
Valyuta pozitsiyasi hisobvaraqlari	(1.000)	(8.077.480)	8.092.130	14.650
Boshqa aktivlar	-	-	69.000.000.000	69.000.000.000



Jami: Aktivlar	-	-	77.008.092.130	77.008.092.130
Mijozlarning mablagʻlari	-	-	10.008.071.000	10.008.071.000
Boshqa majburiyatlar	-	-	67.000.000.000	67.000.000.000
Sof foyda (zarar)	-	-	21.130	21.130
Jami: majburiyatlar va kapital	-	-	77.008.092.130	77.008.092.130

17101-hisobvaraqlarning debet qoldigʻi hisobotni tuzish sanasiga valyutani qayta hisoblashdan 14.650 soʻm miqdoridagi zararni koʻrsatmoqda. Zararni aks ettirish boʻyicha buxgalteriya yozuvi:

Dollardagi kitobda		Soʻmdagi kitobda		
Buxgalteriya yozuvi yoʻq		Dt 55302-«Spot» bitimlari boʻyicha xorijiy valyutalarda koʻrilgan zararlar»	14.650	
		Kt 17101-«Valyuta pozitsiyasi hisobvaraqlari»		14.650

Zarar aks ettirilgandan keyin jamlanma balans hisoboti:

Hisobvaraqlar	Dollardagi kitob (AQSH dollarida)	Dollardagi kitob (\$1 uchun 8.077,48 soʻm qayta baholash kursi boʻyicha)	Soʻmdagi kitob	Jami
Markaziy bankdagi vakillik hisobvaraqlaridagi mablagʻlar	\$1.000	8.077.480	8.000.000.000	8.008.077.480
Valyuta pozitsiyasi hisobvaraqlari	(1.000)	(8.077.480)	8.077.480	
Boshqa aktivlar	-	-	69.000.000.000	69.000.000.000
Jami: Aktivlar	-	-	77.008.077.480	77.008.077.480
Mijozlarning mablagʻlari	-	-	10.008.071.000	10.008.071.000
Boshqa majburiyatlar	-	-	67.000.000.000	67.000.000.000
Sof foyda (zarar)	-	-	6.480	6.480
Jami: majburiyatlar va kapital	-	-	77.008.077.480	77.008.077.480

## **2-Mavzu. Banklarda moddiy va nomoddiy aktivlar hisobi**

**1-topshiriq.** Quyida berilgan savollarga qisqa matnda javob yozing:

1. Bank asosiy vositalarining mazmuni va ularning turlari.
2. Bank asosiy vositalarining hisobi.
3. Amortizatsiya hisoblash usullari va tartibi.
4. Asosiy vositalarni kirim qilish, qayta baholash, ijaraga berish, hisobdan chiqarish va foydalanish tartibi hamda hisobga olinishi.
5. Nomoddiy aktivlar mohiyati, turlari va ularni hisobga olish.
6. Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hisobi.

**2-topshiriq.** Quyida berilgan matnni o'qing va mavzu qo'ying. Matndagi asosiy kalit so'zlar yuzasidan "Klaster" tuzing.

*Asosiy vositalar* - bir yildan ko'proq xizmat qilish muddatiga ega bo'lgan, ishlab chiqarish yoki tovarlarni yetkazib berish, ma'muriy maqsadlar uchun foydalaniladigan yoki ijaraga beriladigan aktivlar.

*Ko'chmas mulk, uskunalar va jihozlar* - bir yildan ortiq muddat foydalanishga mo'ljallangan, ishlab chiqarish yoki tovarlarni yetkazib berish, ma'muriy maqsadlar uchun foydalaniladigan yoki ijaraga beriladigan moddiy aktivlar. Ular, asosiy vositalar tarkibiga kiradi. Shuning uchun ular ko'proq asosiy vositalar deb atashadi.

*Boshlang'ich (tarixiy) qiymat* - asosiy vositani sotib olish yoki uni qurish (qurish va qurilishni tugallash) bilan bog'liq barcha xarajatlar, shu jumladan, to'langan soliqlar, bojxona bojlari va yig'implari hamda yetkazib berish, montaj, o'rnatish va ishga tushirish bilan bog'liq bevosita aktivlardan belgilangan maqsadafoydalanish uchun uni ishchi holatiga keltirish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar summasidir. Shuning uchun boshlang'ich qiymat asosiy vositaning tannarxi deb ham ataladi.

Asosiy vositalarni boshlang'ich qiymati qayta baholangan sanaga nisbatan haqqoniy bahoni aks ettirish uchun oldindan qayta baholanadi;

*Balans qiymati* - bu aktivning balans hisobotida jamg'arilgan eskirish va qiymatini yo'qotishdan keladigan zararni chiqarib tashlagandan keyingi qolgan summa.

*Likvidatsion(tugatilish) qiymat* – aktiv eskirib, o'zining foydalanish xizmat muddati oxirida ega bo'ladigan, ya'ni shu vaqtda bank ushbu aktivni tugatish bilan bog'liq harajatlarni chiqarib tashlagandan so'ng, uni hisobdan chiqarishdan olinadigan, baholangansumma.

*Haqqoniy (real) qiymat* – bu aktivning joriy bozor qiymati yoki o'zaro

manfaatdor tomonlar o'rtasida aktivlarni almashtirish mumkin bo'lgan summadir. Mazkur aktivning faol bozori mavjud bo'lmagan taqdirda haqqoniy qiymat qonunchilikka muvofiq, baholash faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan mustaqil ekspertlar tomonidan aniqlangan qiymatdir.

*Qayta tiklangan qiymat* – bu asosiy vositaning bank buxgalteriya balansidagi qayta baholangan qiymati.

*Foydali xizmat muddati* – bu bank tomonidan aktivlardan foydalanish mo'ljallanayotgan davr yoki ushbu aktivdan foydalanishdan bank qo'lga kiritishni kutayotgan ish va xizmatlar miqdori.

*Amortizatsiya (eskirish)* - aktivning iqtisodiy hayoti mobaynida uning eskirish hisoblanadigan qiymatini muttasil va oqilona ravishda taqsimlanishi.

*Amortizatsiyalanadigan qiymat* – aktivning tannarxi yoki tannarxni almashtiradigan boshqa qiymatidan tugatilish qiymatichegirilgan summadir.

*Qiymatni pasayishi (qadrsizlanish) dan olingan zarar* - aktivning balans qiymatini uning qoplanish qiymatidan oshgan summasi. Qoplanadigan summa - aktivni sof sotish va uning foydalanish qiymatidan eng katta bo'lgan qiymat.

*Foydalanish (qimmatlilik) qiymati* – aktivning foydalanish xizmati muddati mobaynida olininishi ko'zda tutilayotgan va ushbu aktivni hisobdan chiqarishdan olinadigan pul tushumlarining diskontlangan qiymati.

*Sof sotish qiymati* - o'zaro bir-biriga qaram bo'lmagan tomonlar o'rtasida tuzilgan bitim asosida aktivlarni sotilishidan olinishi mumkin bo'lgan, aktivni chiqib ketishi bilan bog'liq xarajatlarni chegirgan summa.

*Ayirboshlash* - korxonalar orasida aktivlarni berish yoki boshqa turdagi xizmatlarni bajarish yoxud boshqa aktivlarni berish evaziga majburiyatlarni qoplash yuzasidan o'zaro bir-biriga yetkazib berish.

*Bir taraflama berish* - aktivlar yoki xizmatlarni bir taraflama berish, bankdan uning mulkdorlariga yoki teskarisi, mulkdorlar va boshqa tashkilotlardan muayyan bankka.

*Tugatish qiymati* - asosiy vositalarning foydali xizmat qilish muddati oxirida asosiy vositalarni tugatishdan olinadigan qiymatdan taxmin qilinayotgan chiqib ketish xarajatlarini ayirgandan keyingi qolgan qiymati.

*O'xshash ishlab chiqarish aktivlari* - bir umumiy turga mansub bo'lgan, bir xil vazifalarni bajaradigan yoki xuddi o'sha xo'jalik faoliyatida ishlatiladigan ishlab chiqarish aktivlari.

Asosiy vositalar hisobida to'rt asosiy masala mavjud:

asosiy vositalar qabul qilinishida dastlabki ro'yxatdan o'tkazish summasi yoki uning tannarxini aniqlash. Bu qiymat asosiy vositaning boshlang'ich-tarixiy qiymati bo'ladi.

asosiy vositalar qiymatini kelgusi davrlarga taqsimlash uchun aniqlangan eskirish usuli va stavkasini belgilash.

asosiy vositalar olingandan keyin qiymatining o'zgarishi, shu jumladan qiymatining ko'payishi yoki mumkin bo'lgan kamayishi, kamayishining oqibatlarini hisobvaraqlarda qanday qilib aks ettirilishi.

asosiy vositalarni hisobdan chiqarishni ro'yxatga olish.

Asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini 16-MHXS "Asosiy vositalar" nomli standart bo'yicha tartibga solish tavsiya etiladi. Asosiy vositalar bankda ham, boshqa korxonalar va tashkilotlarda ham bir xil ahamiyatga ega.

Lekin, banklarda asosiy vositalarning hisobi bilan bog'liq buxgalteriya o'tkazmalari O'zbekiston Respublikasi banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini yuritish "O'zbekiston Respublikasi banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini yuritish to'g'risida"gi yo'riqnoma (Ro'yxat raqami 1434, 2004 yil 17 dekabr) talablari asosida amalga oshiriladi. Ushbu yo'riqnoma yuqorida qayd etilgan MHXS 16 ga muvofiq ishlab chiqilgan yoki uning qoidalari to'la xalqaro standartlarga mos keladi.

Banklarda asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini tushuntirishda ushbu yo'riqnoma qoidalaridan foydalaniladi.

Asosiy vositalar ob'yekti aktiv sifatida MHXSning umumiy qoidalari asosida tan olinishi kerak, ya'ni:

- aktiv bilan bog'liq bo'lgan kelgusi iqtisodiy naflar bank tomonidan olinishi ehtimoli yuqori darajada deb tasdiqlanganda; va
- korxonalar uchun aktivning tannarxi ishonchli baholanishi mumkin bo'lganda.

Aktivdan foydalanish natijasida kelajakda keladigan iqtisodiy samara, bank tomonidan undan foydalanish natijasida yuzaga kelgan xizmatlarni sotishdan tushadigan tushumni, xarajatlarni tejash va boshqa foydalarni o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu iqtisodiy naflarni olish ehtimoli yuqori bo'lganda bank aktiv bilan bog'liq manfaatlarni va tavakkalchiliklarni o'z zimmasiga olishi aniq bo'lishini talab etadi. Bunday aniqlik ushbu manfaatlar va tavakkalchiliklar bankka o'tgandagina, mavjud bo'ladi. Ushbu vaqtga qadar aktivni olish bilan bog'liq operatsiya ahamiyatli bo'lmagan jarima choralari bilan bekor qilinishi mumkin, shuning uchun aktiv tan olinmaydi.

Tan olishning ikkinchi sharti osonlik bilan bajo keltiriladi, chunki aktivlarni sotib olinganligi to'g'risida dalil bo'lgan ayirboshlash operatsiyasi natijasida uning qiymati aniqlanadi. Aktiv o'z kuchi bilan barpo etilgan taqdirda uning bahosi materiallarni sotib olish bilan bog'liq tashqi tomonlar bilan operatsiyalar, ish kuchi va qurilish jarayonida amalga oshirilgan boshqa xarajatlar asosida aniqlanadi.

Asosiy vosita qiymati ishonchli tarzda baholangandagina, u bankning buxgalteriya yozuvlarida aks ettirilib, tan olinadi. 16-sonli BHXS: Aktiv sifatida tan olinadigan asosiy vositalar ob'yekti dastlab tannarxi bo'yicha baholanishi kerak. Sotib olingan asosiy vositalar balansda boshlang'ich (tarixiy) qiymati yoki agar, keyinchalik qayta baholangan bo'lsa, demak u qayta baholangan qiymati bo'yicha aks ettiriladi.

Sotib olingan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati, quyidagi xarajatlarni o'z ichiga oladi:

- aktivni yetkazib beruvchilarga va shartnomaga asosan qurilish-

montaj ishlarini bajarilishi uchun ijarachilarga to'langan summa;

- asosiy vositalarni ob'yehtini sotib olish uchun to'langan ro'yxat bo'yicha yig'imlar, davlat boji (bojxona boji, yig'imlar va boshqalar) va boshqa o'xshash to'lovlar;

- asosiy vositalar ob'yehtini sotib olish (yaratish) bilan bog'liqsoliqlar va yig'imlar (agar ular qayta qoplanmagan bo'lsa);

- asosiy vosita ob'yehtini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan axborot va maslahat xizmati uchun to'lovlar summasi;

- ob'yehtni yetkazib berish bo'yicha sug'urta riski xarajati;

- asosiy vositani olishda o'rtada turganlarga mukofot puli;

- yetkazib berish, montaj, o'rnatish va ishga tushirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;

- bevosita aktivdan belgilangan maqsadda foydalana olish uchun uni ishchi holatiga keltirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar. Xorijiy valyuta hisobiga sotib olingan asosiy vositalar balansda davlat bojxona deklaratsiyasi rasmiylashtirilgan kundagi Markaziy bankning kursi bo'yicha milliy valyutada aks ettiriladi hamda xorijiy valyutaning kursi o'zgarishi munosabati bilan ular

qayta baholanmaydi.

Ma'lum hollarda aktiv bilan bog'liq xarajatlarning umumiy summasini alohida qismlarga bo'lish va har bir qismni alohida hisobga olish lozim. Bunday hisob yuritish ushbu ob'yehtning alohida qismlari har xil foydali xizmat qilish muddatiga ega bo'lgan holda amalga oshiriladi.

Tekinga olingan asosiy vositalar, ularni sotib olishda ko'rsatilganidek avvaliga balansda xarajatlarni hisobga olgan holda buxgalteriya hisobiga olingan sanaga nisbatan xaqqoniy qiymatda tan olinadi. Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatiga kelgusida aniq xarajatlar qilinganda, ular qayta baholanganda, chiqarib tashlanganda va asosiy vosita ob'yehti yoki uning ayrim bo'lagi sotilganda, tuzatishlar kiritilishi mumkin. Bankning balansiga asosiy vositalar

quyidagi hollarda olinadi:

Naqd pulga, to'lov evaziga sotib olish;

Ob'yehtlarni qurish yoki rekonstruksiya qilish yo'li bilan; Pulga oid bo'lmagan operatsiyalar orqali (ayirboshlash); Tekinga olish yoki subsidiya yo'li bilan;

Moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga ko'ra;

Ortiqcha chiqqan (hisobga olinmagan) asosiy vositalar.

Asosiy vositalar, loyiha-tadqiqot ishlari, qurilish materiallari, mehnat, bino (inshoot)lar qurilishi (ta'mirlanishi) bilan bog'liq xarajatlar va asosiy vositalarni sotib olish bilan bog'liq boshqa kapitallashtirilgan xarajatlar qiymatini oldindan to'liq yoki qisman to'lash quyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan rasmiylashtiriladi:

Debet - 19909 «Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i»

Kredit - Bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijozning (mol yetkazib beruvchining) talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i, agar ularga ushbu bank

xizmat ko'rsatsa

Sotib olingan binolar (inshootlar) balansda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan aks ettiriladi:

Debet - 16509 «Bankning imoratlari - Binolar va boshqa qurilgan imoratlar».

Kredit - 19909 «Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i».

Sotib olingan boshqa asosiy vositalarni balansda aks ettirish: Debet - 165\*\* - «Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i».

Kredit - 19909 «Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i».

Asosiy vositalarni omborga kirim qilish quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan rasmiylashtiriladi:

Debet - 16561 «Ombordagi asosiy vositalar».

Kredit - 19909 «Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i».

Ta'mirlashni talab qiladigan sotib olingan binolar ta'mirlash ishlari tugagunga qadar 16505 - «Tugallanmagan qurilishlar» balans hisobvarag'ining alohida shaxsiy hisobvarag'idahisobga olinadi. Bunda binolarni (inshootlarni) qurish

(ta'mirlash) ishlari bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, loyiha-tadqiqot ishlari, qurilish materiallari va mehnat xarajatlari qabul qilish dalolatnomalariga asosan quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali hisobvaraqlarda aks ettiriladi:

Debet - 16505 «Tugallanmagan qurilishlar»

Kt - 19909 «Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i»

Agar keyingi xarajatlar chet ellik hamkor bilan tuzilgan shartnomaga asosan chet el valyutasida amalga oshirilsa, xarajatlarning hisobi 16505 - «Tugallanmagan qurilishlar» hisobvarag'ida operatsiya bajarilgan kundagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha so'mdagi ekvivalentda amalga oshiriladi.

Yil oxirida bankning barcha filiallariga ochilgan 16505-«Tugallanmagan qurilishlar» hisobvaraqlaridagi qoldiq Bosh bankda tugallanmagan qurilishning hajmiga mos kelishi kerak va u keyingi yilga o'tkaziladi.

Binolar (inshootlar) foydalanishga tayyor bo'lgan holda ularning qiymati tegishli qabul qilish dalolatnomasiga asosan 16509 - «Bank imoratlari-binolar va boshqa qurilgan imoratlar» hisobvarag'iga kirim qilinadi. Agar qurilish yoki ta'mirlash ishlarining xarajatlar smetasida mebel va jihozlarni sotib olish ko'zda tutilgan bo'lsa, unda qabul qilish dalolatnomasida ularning qiymati umumiy qiymatdan ajratib ko'rsatiladi va to'liq ro'yxati ilova qilinadi. Bunda quyidagi buxgalteriya yozuvlari rasmiylashtiriladi:

a) binoning qiymati summasiga:

Debet - 16509 «Bankning imoratlari - Binolar va boshqa qurilgan imoratlar»

Kredit - 16505 «Tugallanmangan qurilishlar».b) mebel va jihozlarning qiymati

summasiga: Debet - 16535 «Mebel, moslama va jihozlar». Kredit - 16505 «Tugallanmangan qurilishlar».

Agar bank to'lovni moddiy aktivlar kirim qilingandan keyin amalga oshirsa, tegishli kirim hujjatlariga asosan quyidagibuxgalteriya o'tkazmasi bajariladi:

Moddiy aktivlar kelib tushganda balansda aks ettirish:

a) agar asosiy vositalar kelib tushgandan darhol foydalanishgaberilsa:

Debet - 165\*\* Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i, yoki 16505 - «Tugallanmangan qurilishlar» (agar qayta ta'mirlashni talab qiladigan bino, tugallanmagan qurilish yoki qurilish uchunmateriallar sotib olinayotgan bo'lsa).

Kredit - 29802 «Tovar - moddiy qimmatliklar va ko'rsatilganxizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar hisob-kitobi»

b) asosiy vositalar omborga kirim qilinganda:Debet - 16561 «Ombordagi asosiy vositalar»

Kredit - 29802 «Tovar - moddiy qimmatliklar va ko'rsatilganxizmatlarga to'lanadigan mablag'lar hisob-kitobi»

2) Aktivlarning qiymati to'langanda:

Debet - 29802 «Tovar - moddiy qimmatliklar va ko'rsatilganxizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar hisob-kitobi»

Kredit -Bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijozning hisobvarag'i Asosiy vositalarni ombordan foydalanishga topshirganda: Debet - 165\*\* Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i Kredit - 16561 «Ombordagi asosiy vositalar»

Asosiy vositalar bepul olinganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi. Bepul olingan asosiy vositalarning real qiymatiga:

Debet - 165\*\* asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i, yoki 16561 - «Ombordagi asosiy vositalar» (agar omborga kirim qilinsa)

Kredit - 45994 «Boshqa foizsiz daromadlar»

Bunda yuzaga keladigan xarajatlar joriy xarajatlarning hisobiga olinadi.

Agar asosiy vositalar subsidiya yo'li bilan olingan bo'lsa, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet - 165\*\* asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i, Kredit - 22896 - «Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar»

Muddati uzaytirilgan daromadlar tijorat banklarining grant buxgalteriya hisobi qonuniga (21.01.2004 yilda 1300-son bilan ro'yxatga olingan) kelgusida 22896 hisobvarag'ida hisobga olinadi.

Agar (amaldagi qonunchilikka muvofiq byudjetga soliqlar to'lashdan ozod qilingan) banklar asosiy vositalarni bankinfratuzilmasini rivojlantirish doirasida soliqdan ozod qilingan mablag'lar hisobidan sotib olishgan bo'lsa, ularning qiymatini 30903 - "Umumiy zaxira fondi" balans hisobvarag'ining "Bank infratuzilmasini rivojlantirishga sarflangan mablag'lar" shaxsiy hisobvarag'iga kirim qilish quyidagi ko'rinisdagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan rasmiylashtiriladi:

Debet - 30903 «Umumiy zaxira fondi»

«Bank infratuzilmasini rivojlantirish fondiga yo'naltirilgan mablag'lar» sh/h.

Kredit - 30903 «Umumiy zaxira fondi»

«Bank infratuzilmasini rivojlantirishga sarflangan mablag'lar».

Asosiy vositalar yoki ularning ayrim qismlari ko'p hollarda boshqa pul bo'lmagan aktivlarga ayirboshlanishi mumkin. Bunday usulda olingan asosiy vositalar haqqoniy qiymati bilan balansda aks ettirilishi yoki tan olinishi lozim. Faqat quyidagi ikki holatdan tashqari hollarda:

1. Ayirboshlash tijorat maqsadida ega emas yoki foyda olishni ko'zlamagan.

2. Ayirboshlanayotgan asosiy vositalarning haqqoniy qiymatini aniqlash imkoni yo'q.

Ayirboshlashning birinchi sharti, ya'ni u tijorat tavsifiga ega yoki yo'qligi bir necha usullarda aniqlanadi, lekin asosiy shartlaridan biri bu jarayonni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsadga to'g'ri yondashishdan iborat.

Bundan tashqari ayirboshlanayotgan asosiy vositaning xususiyatlari ham inobatga olinadi.

Ayirboshlashning ikkinchi sharti, ya'ni ayirboshlanayotgan asosiy vositalarning haqqoniy qiymatini aniqlash imkoni yo'q bo'lsa, unda ular balans qiymati bilan tan olinadi yoki boshqacha aytganda ularning shu bugungacha balansda qanday summada aks ettirilgan bo'lsa, ularni shu summada yana balansga qabul qilinadi.

Respublikamiz qonunchiligida ham qarzdor mulk garovi ostida olgan krediti bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan holda, bank (garov egasi) o'zining garov huquqidan foydalanishi va garov mulkini sotishi yoki o'z mulkiga aylantirib olishi mumkinligi ko'zda tutilgan. Sotish uchun mo'ljallangan garovga qo'yilgan mulk boshlanishida undirib olinadigan mulk va boshqa ko'chmas mulk hisob-kitobi to'g'risidagi me'yoriy hujjatda aks ettiriladi.

Agar, bank hisobiga o'tadigan mulkdan o'zining asosiy vositasi sifatida foydalanishga qaror qilsa, unda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet - 165\*\* asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i,

Debet - 16799 Bankning boshqa xususiy mulklari bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi

(kontr-aktiv)

Kredit - 16701 Kredit va lizing bo'yicha garov hisobidan undiriladigan mulk.

Asosiy vositalarni qayta baholash uchun quyidagi usullar qo'llaniladi:

- indeks usuli;
- to'g'ridan – to'g'ri qayta baholash usuli.

Indeks usuli. Qayta baholashning indeks usulida asosiy vositalarning balans qiymati va qayta baholash kunidagi shu aktivlarning jamg'arilgan amortizatsiyasi ma'lum indeksdan foydalangan holda qayta baholanadi. Shundan keyin aktivlarning qayta baholangan qiymati ularning balans qiymati va jamg'arilgan eskirishi bilan taqqoslanadi va o'rtadagi farq summasiga tegishli buxgalteriya yozuvlari amalga



oshiriladi.

1) Agar aktivning qayta baholangan qiymati uning balans qiymatidan ortiq bo'lsa, ushbu oshgan summa 30908 - «Boshlang'ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi» hisobvarag'ida quyidagi buxgalteriya yozuvi orqali aks ettiriladi:

a) Debet - 165\*\* Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i Kredit - 30908 «Boshlang'ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi»

b) qayta baholashgacha bo'lgan va qayta baholangandan keyingi jamg'arilgan eskirish summolari o'rtasidagi farq summasiga:

Debet - 30908 «Boshlang'ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi»

Kredit - 165\*\* Asosiy vositalarning tegishli jamg'arilgan eskirish hisobvarag'i

v) qayta baholash natijasida asosiy vositaning o'sgan qiymati, ushbu aktiv bo'yicha oldingi qayta baholash natijasiga ko'ra xarajat sifatida hisobga olingan qismi miqdorida daromad sifatida hisobga olinishi lozim.

2) Qayta baholash natijasida asosiy vositalarning real (haqiqiy) qiymati kamaysa, u xarajat sifatida hisobga olinadi. Ushbu summa 30908 - «Boshlang'ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatini oshgan summasi» hisobvarag'idan oldingi qayta baholash natijasida bevosita mazkur aktiv bo'yicha hosil bo'lgan ijobiy summadan ayirib tashlanishi lozim. Bunda quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:

a) qayta baholashgacha bo'lgan va qayta baholangandan keyingi jamlangan eskirish o'rtasidagi farq summasiga:

Debet - 165\*\* Asosiy vositalarning tegishli jamg'arilgan eskirish hisobvarag'i

Kredit - 30908 «Boshlang'ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatini oshgan summasi»

b) qayta baholash natijasida aniqlangan aktiv real (haqiqiy) qiymatning kamayish summasiga:

Debet - 30908 «Boshlang'ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi» (oldingi qayta baholash natijasidagi o'sish miqdoriga)

Kredit - 165\*\* Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i v) 30908-hisobvaraqda aks ettirilgan oldingi qayta baholash summasi yetarli bo'lmagan holda, kamayish va oldingi qayta baholash summolari o'rtasidagi farq summasi xarajat sifatida hisobga olinadi va 55995 «Boshqa foizsiz xarajatlar» hisobvarag'ida aks ettiriladi. Bunda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet - 55995 «Boshqa foizsiz xarajatlar».

Kredit - 165\*\* Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i.

**Uyga vazifa. Berilgan masalani talab qilingan holatlar bo'yicha bajaring.**

1. 2018 yil 25 mayda qiymati 480000 so'm bo'lgan kompyuter sotib olindi va 16535-hisobvaraqqa kirim qilindi. Yillik eskirish me'yori 20%. 2020 yil 1 yanvar

holatiga jami hisoblangan eskirish summasini aniqlang, tegishli buxgalteriya provodkalarini bering.

2. 2020 yil 1 yanvarda kompyuterning boshlang'ich qiymati va yig'ilgan eskirish summasini e'lon qilingan qayta baholash koeffitsienti (koeffitsiyent-2) ni qo'llagan holda boshlang'ich va eskirish summasini qayta baholang va hisob-kitob natijalariga buxgalteriya provodkalarini yozing.

### **3-mavzu. Bank daromadlari va xarajatlari hisobi (1-amaliy mashg'ulot)**

#### **O'rganiladigan savollar:**

1. Bank daromadlari va ularning tarkibi.
2. Bankning foizli va foizsiz daromadlari, ularning hisobi.

**1-topshiriq.** Berilgan qisqa matnlarni o'qing va mazmuni bo'yicha boshlang'ich buxgalteriya hujjatlari haqida taqdimotli material tayyorlang.

Buxgalteriya hisobida daromad tushunchasi "Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishning konseptual asosi" (MHXS-1)da aktivlarning kelib tushishi yoki ko'payishi yoxud majburiyatlarning kamayishi shaklida iqtisodiy nafning hisobot davrida o'sishi va ushbu o'sishning kapital egalari kapitalga qo'yilmalari bilan bog'liq bo'lmagan ko'payishi sifatida ta'riflangan. Daromad tushunchasi odatdagi faoliyatdan olinadigan daromad va boshqa daromadlarni o'z ichiga oladi.

Daromad sub'yektning faqat o'zi uchun olingan yoki olinadigan iqtisodiy nafning yalpi tushumini qamrab oladi. Uchinchi tomon nomidan undirib olingan summalar, masalan sotishdan soliqlar, tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlar, qo'shilgan qiymatsolig'i, bankka kelib tushadigan iqtisodiy naf bo'lib xizmatqilmaydi va kapitalning ko'payishiga olib kelmaydi. Shu bois, ular daromaddan chiqarib tashlanadi. Shunga o'xshash, vositachilik munosabatlarida, iqtisodiy nafning yalpi tushumi buyurtmachi nomidan undiriladigan summalarni qamrab oladi, lekin tadbirkorlik sub'yektining kapitali oshishiga olib kelmaydi. Buyurtmachi nomidan undirilgan summalar daromad bo'lib hisoblanmaydi, aksincha, daromad vositachilik haqi hisoblanadi.

Banklarda hisobot davridagi barcha daromadlari yalpi daromad deyiladi. Odatda, yalpi daromad tarkibida quyidagi daromad guruhlari ajratiladi:

#### *1. Operatsion daromadlar:*

- 1.1. Foizli daromadlar.
- 1.2. Komission daromadlar.
- 1.3. Moliyaviy bozordagi operatsiyalardan daromadlar.

- 1.4. Boshqa operatsion daromadlar.
2. *Bankning qo'shimcha faoliyatidan daromadlar.*
3. *Boshqa daromadlar.*

Banklar daromadlari tarkibida katta ulushga ega bo'lgan asosiy faoliyatdan daromadlarga, operatsion daromadlar deyiladi Operatsion daromadlar foizli va foizsiz daromadlarga bo'linadi. Bank daromadlarini hisobga olish amaliyotini ko'ribchiqishdan oldin daromadlar tushunchalarini tahlil qilish kerak bo'ladi.

**2-topshiriq.** Tijorat banklarining foizli va foizsiz daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar ro'yxatini tuzing. Foizli va foizsiz daromadlar bo'yicha buxgalteriya provodkalarini tuzing.

**Namuna sifatida:** kredit bo'yicha hisoblangan foizlar quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan aks ettiriladi:

Dt-16309 "Kreditlar bo'yicha olish uchun hisoblangan foizlar"-15.000.000;

Kt-41400-44700 "Kreditlar bo'yicha foizli daromadlar-15.000.000".

Kredit bo'yicha foiz summasi kelib tushganda, to'lov turiga qarab quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan aks ettiriladi:

Dt-10101 "Aylanma kassadagi naqd pullar" yoki bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijozning hisobvarag'i – 15.000.000;

Kt-16309 "Kreditlar bo'yicha olish uchun hisoblangan foizlar"- 15.000.000.

Hozirgi kunda bank amaliyotida kredit foizi bilan birga kredit berish bo'yicha komission haqlar ham foizli daromadlar tarkibiga kiritilmoqda. YA'ni bank kredit berish majburiyatini olganda mijoz unga komission haq to'laydi. Bu to'lov kreditning amal qilish muddati davomida taqsimlanadi.

**Uyga vazifa. Mavzu yuzasidan ma'ruza mashg'ulotida berilgan matnni o'qing va o'zlashtiring.**

### **3-Mavzu. Bank daromadlari va xarajatlari hisobi (2-amaliy)**

#### **O'rganiladigan savollar:**

1. Bank xarajatlari, ularning tarkibi, bankning foizli, foizsiz va operatsion xarajatlarini hisobga olish.
2. Bank faoliyati moliyaviy natijalarining hisobi.

**1-topshiriq.** Mavzu yuzasidan berilgan manbani o'qing va mavzuga tegishli nazariy manbalar ro'yxatini tuzing.

#### **2-topshiriq. Quyida berilgan matn asosida izohli lug'at bilan ishlang.**

«Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to'g'risida»gi Nizomda banklar

daromadlar va xarajatlarni hisobga olishda izchillik, ishonchlilik, aniqlik, to'liqlik va o'z vaqtidalilik bo'yichatalablarni o'z ichiga oladigan hisoblab, yozish usulini qo'llash bo'yicha tamoyillarni qo'llashlari kerak ekanligi va bu tamoyillar qo'yilgan talablarni bajarish va qo'llashning tegishli usullari to'g'risidagi ko'rsatmalarni o'z ichiga olishi lozimligi belgilangan.

Bank daromad va xarajatlarni tan olishda, shuningdek, «ehtiyotkorlik», «hisobot davrida daromadlar bilan xarajatlarning muvofiqligi», «ahamiyatlilik», tamoyillaridan ham foydalanish kerak. YA'ni, qarorlar qabul qilishda ehtiyotkorlik qoidasiga rioya qilish aktivlar va daromad qaytadan baholanmasligi, majburiyatlar yoki xarajatlar esa yetarlicha baholanmasligiga yo'l qo'ymaslik maqsadida noaniqlik sharoitida baho chiqarish uchun zarurdir. Hisobot davrida olingan daromadlar bilan qilingan xarajatlarning muvofiqligi shuni anglatadiki, mazkur davrda ushbu hisobot davridagi daromadlarni olishga asos bo'lgan xarajatlarga aks ettiriladi. Agar, daromad bilan xarajatlar o'rtasida bevosita bog'liqlikni o'rnatish qiyin bo'lsa, xarajatlardan biron-bir taqsimlash tizimiga muvofiq bir nechta hisobot davrlari o'rtasida taqsimlanadi. Masalan, bir necha yilga taqsimlanadigan amortizatsiya xarajatlarga. Daromad va xarajatlarni hisobga olishda ahamiyatlilik tamoyili moliyaviy axborotdan foydalanuvchilarning qarorlar qabul qilish jarayonida ularning ehtiyojlarini qondirish va ularga operatsion, moliyaviy va xo'jalik faoliyatiga baho berishda ko'maklashish uchun zarur bo'lishi kerak. Shuningdek, arzimagan xarajat elementini to'g'ri hisoblash

imkoniyati yo'qligi daromadni tan olmaslik sabablari bo'lmasligi lozim.

Xozirgi kunda bank daromadlari va xarajatlarni buxgalteriya hisobida tan olish masalasi o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Bank daromadlari va xarajatlarni hisobga olishda tan olish mezonlarining bajarilishi va buxgalteriya hisobining izchillik, ishonchlilik, aniqlik, to'liqlik va o'z vaqtidalilik tamoyillari bilan birga «ehtiyotkorlik», «hisobot davrida daromadlar bilan xarajatlarning muvofiqligi», «ahamiyatlilik» tamoyillaridan foydalansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### **4-mavzu. Banklarda soliqlar va yig'malar hisobi**

**1-topshiriq. Quyidagi savollarni o'rganib chiqing va qisqa matnda javob yozing.**

1. Bankning budjet va budjetdan tashqari to'lovlari turlari va ularni hisoblash.
2. Banklarda daromad solig'i, qo'shimcha qiymat solig'i, ekologiya solig'i, mol-mulk solig'ini hisoblash va hisobini yuritish tartibi.
3. Budjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha operatsiyalarni bank buxgalteriya hisobida aks ettirilishi.

**2-topshiriq.** Quyidagi matn asosida banklarni soliqqa tortishning meyoriy-huquqiy asoslari haqida ma'lumotlarni o'zlashtiring:

Respublikamizda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish hamda davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lash bilan bog'liq munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlar soliq kodeksi asosida tartibga solinadi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar soliq kodeksi bilan belgilanadi, o'zgartiriladi yoki bekor qilinadi. Soliq solish masalalariga oid normativ-huquqiy hujjatlar soliq kodeksi qoidalariga muvofiq bo'lishi kerak.

Soliq solish masalalariga oid normativ-huquqiy hujjat ayrim hollarda soliq Kodeksiga muvofiq emas deb topiladi, jumladan quyidagi holatlarda:

- soliq kodeksiga muvofiq bunday hujjatni qabul qilish huquqiga ega bo'lmagan organ tomonidan qabul qilingan bo'lsa yoki normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishning belgilangan tartibi buzilgan holda qabul qilingan bo'lsa;

- soliq munosabatlari subyektlarining huquqlarini bekor qilsa yoki cheklasa, soliq munosabatlari subyektlarining soliq kodeksida belgilangan majburiyatlarining mazmunini, ular harakatlarining asoslari, shartlari, ketma-ketligi yoki tartibini o'zgartirsa;

- soliq kodeks bilan taqiqlangan harakatlarga ruxsat bersa yoki yo'l qo'ysa;

- soliq kodeksida belgilangan tushunchalar mazmunini o'zgartirgan yoki bu tushunchalar soliq kodeksida qo'llanilganidan boshqacha ma'noda qo'llanilgan bo'lsa.

Soliq kodeksiga muvofiq bo'lmagan normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan organ yoki uning yuqori turuvchi organlari mazkur hujjatni bekor qilishga yoki unga zarur o'zgartishlar kiritishga haqli. Bu organlar soliq kodeksiga muvofiq bo'lmagan normativ-huquqiy hujjatni bekor qilishni yoki unga zarur o'zgartishlar kiritishni rad etgan taqdirda, bu hujjat sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Soliq qonunchiliga ko'ra soliq solish soliq majburiyatlari yuzaga kelgan paytda amalda bo'lgan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Ayrim istisno hollardan tashqari holatlarda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari orqaga qaytish kuchiga ega emas va ular amalga kiritilganidan keyin yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan qo'llaniladi. YA'ni, soliq to'g'risidagi qonunhujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni bekor qiladigan yoki yengillashtiradigan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari orqaga qaytish kuchiga ega hisoblanadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni bekor qilish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalarini kamaytirish, soliq to'lovchilarning majburiyatlarini bekor qilishni yoki ularning ahvolini boshqacha tarzda yengillashtirishni nazarda tutuvchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari orqaga qaytish kuchiga ega bo'lishi mumkin.

Yangi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar belgilanishini, imtiyozlar to'liq yoki qisman bekor qilinishini, soliq solinadigan baza oshirilishini nazarda tutuvchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari ular rasmiy e'lon qilingan paytdan e'tiboran kamida uch oy o'tgach, amalga kiritiladi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari o'zgartirilishini nazarda tutuvchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari, agar ularda kechroq muddatko'rsatilmagan bo'lsa, ular rasmiy e'lon qilingan oydan keyingioyning birinchi kunidan e'tiboran amalga kiritiladi.

Tijorat banklari soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilgan yuridik shaxslar hisoblanib, o'z faoliyati bo'yicha soliq to'lovchi hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish majburiyati yuklatilganligi bois, soliq agentlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarga quyidagilar kiradi:

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;  
jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;  
qo'shilgan qiymat solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

mol-

mulk  
solig'i;  
yer  
solig'i;

davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy  
to'lovlar:yagona ijtimoiy to'lov.

Tijorat banklari tomonidan har bir to'lanadigan soliq turlaribo'yicha soliq hisoboti topshiriladi. Soliq hisoboti soliq to'lovchining soliq va boshqa majburiy to'lovning har bir turi bo'yicha yoki to'langan daromadlar bo'yicha hisob-kitoblar hamda soliq deklaratsiyalarini, shuningdek hisob-kitoblarga va soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o'z ichiga oladigan hujjati bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda tuziladi. Soliq hisoboti qog'ozda va (yoki) elektron hujjatga doir talablarga rioya etilgan holda elektron hujjat tarzida tuziladi.

Tijorat banklari uchun foyda solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza «Foyda va zararlar to'g'risida»gi hisobotga muvofiq jami daromadlar bilan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida, Soliq kodeksining 147-moddasida belgilangan chegirilmaydigan xarajatlarni qayta qo'shgan holda, Soliq kodeksning 158-moddasi ikkinchi qismida, boshqa qonunlarda va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida, alohida hollarda esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan imtiyozlar

hamda Soliq Kodeksining 159-moddasiga muvofiq soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi summalari inobatga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi. Soliq solish maqsadida asosiy vositalar obyektlari va nomoddiy aktivlarning chiqib ketishida mazkur asosiy vositalar obyektlari va nomoddiy aktivlarning qo‘shimcha baholash summasining ushbu asosiy vositalar obyektlari va nomoddiy aktivlarning ilgarigi arzonlashtirishlar summasidan oshgan qismi taqsimlanmagan foyda tarkibida hisobga olinadi va soliq solish bazasiga kiritiladi.

Tijorat banklari tomonidan to‘laydigan foyda solig‘i, soliq solinadigan bazaga nisbatan Soliq kodeksining 159-1-moddasida belgilangan stavkada amalga oshiriladi. Banklar tomonidan foyda solig‘ining hisob-kitobi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdimetiladi. Banklar foyda solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovlarning summasini aniqlash uchun joriy hisobot davri (yilning choragi) birinchi oyining 10-kunigacha davlat soliq xizmati organiga joriy hisobot davri uchun taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining belgilangan stavkasidan kelib chiqib hisoblangan foyda solig‘ining summasi haqida ma‘lumotnoma taqdim etadilar.

Foyda solig‘i quyidagi formula yordamida hisoblanadi:  $F_s = ((J_d - J_x) + QK_x \pm KCh_x - I_m) \times S_s$

$F_s$  – foyda solig‘i;  $J_d$  – jami daromadlar;  $J_x$  – jami xarajatlar;  $QK_x$  – Soliq solinadigan bazaga qayta kiritiladigan xarajatlar;  $KCh_x$  – hisobot davrining soliq solinadigan foydasidan kelgusida chegiriladigan xarajatlar;  $I_i$  – Imtiyozlar,  $S_s$  – amaldagi soliq stavkasi(foizda).

Foyda solig‘ini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazaga qayta kiritiladigan xarajatlar (chegirilmaydigan xarajatlar) quyidagilar:

moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi normalaridagi ortiqcha yo‘qotishlar va buzilishlar;

umumiy ovqatlanish korxonalariga yoki boshqa chet tashkilotlarga joylarni bepul berish xarajatlari, ushbu korxonalar va tashkilotlar uchun kommunal xizmatlar ko‘rsatish qiymatini to‘lash;

bankning Soliq kodeksning 177-moddasida nazarda tutilgan, jismoniy shaxsning moddiy naf tarzidagi daromadlari hisoblanadigan xarajatlari;

dala ta‘minoti, xizmat maqsadida xodimning shaxsiy avtotransportdan foydalanganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to‘langan to‘lovlar;

pensiyalarga qo‘shimcha va ustamalar;

xodimlarga to‘lanadigan moddiy yordam, bundan ushbu Kodeksning 143 va 145-moddalarida nazarda tutilgan moddiy yordam mustasno (*xodim oila a‘zosining vafoti yoki xodimning vafoti munosabati bilan oila a‘zolariga beriladigan va xodimning mehnatda mayib bo‘lishi yoki uning sog‘lig‘iga boshqacha tarzda shikast yetkazilishi munosabati bilan beriadigan **moddiy yordam bundan mustasno**; bola tug‘ilishi, xodim yoki uning farzandlari nikohdan o‘tishi*

munosabati bilan beriladigan va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini berish yoki ularni sotib olish uchun mablag‘lar berish tarzidagi moddiy yordamlar qayta qo‘shiladi);

badallar, homiylik va xayriya yordami tarzidagi mablag‘lar; qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiq holda

atrof muhitni ifloslantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik uchun kompensatsiya to‘lovlari;

kredit shartnomasida muddatli qarzlar uchun nazarda tutilgan stavkalardan ortiqcha bo‘lgan, to‘lov muddati o‘tgan hamda uzaytirilgan kreditlar (zayomlar) bo‘yicha foizlar;

loyihalardagi va qurilish-montaj ishlaridagi kamchiliklarni, shuningdek obyekt yonidagi omborgacha tashib keltirilishi chog‘ida yuz bergan buzilishlar va deformatsiyalarni bartaraf etish bo‘yicha xarajatlar, korroziyaga qarshi muhofazadagi nuqsonlar tufayli taftish o‘tkazish (asbob-uskunalarni qismlarga ajratish) xarajatlari, mazkur xarajatlarni kamchiliklar, buzilishlar yoki zararlar uchun javobgar bo‘lgan mahsulot yetkazib beruvchi yoki boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar hisobidan o‘rnini qoplash mumkin bo‘lmagan miqdordagi boshqa shunga o‘xshash xarajatlar;

aybdorlari aniqlanmagan o‘g‘irliklar va kamomadlardan yoki zarur summalarning o‘rnini aybdor taraf hisobidan qoplash mumkin bo‘lmaganda ko‘rilgan zararlar;

soliq to‘lovchining asosiy vositalari chiqib ketishidan (balansdan chiqarilishidan) ko‘rilgan (buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan) zararlar, bundan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida mol-mulkni bepul topshirishdan ko‘rilgan zararlar, shuningdek telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlaritizimining texnik vositalarini bepul topshirishdan hamda ulardan bepul foydalanish va ularga xizmat ko‘rsatishdan ko‘rilgan zararlar va 3 yildan ortiq foydalanilgan asosiy vositalarni realizatsiyaqilishdan ko‘rilgan zararlar mustasno;

xo‘jalik shartnomalari shartlarini va qonun hujjatlarini buzganlik uchun to‘langan yoki tan olingan jarimalar, penya hamdaboshqa turdagi sanksiyalar;

O‘zbekiston Respublikasi norezidenti va boshqa shaxslar uchun to‘langan



solliqlar;

tekshiruvlar natijalariga ko'ra qo'shimcha hisoblangan solliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;

solliq to'lovchining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi bilan bog'liq bo'lmagan tadbirlar (sog'liqni saqlash, sport va madaniyat tadbirlari, dam olishni tashkil etish va hokazo) uchun xarajatlar;

kasaba uyushmasi qo'mitalariga yordam ko'rsatish;

mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan ishlarni (xizmatlarni) bajarish uchun xarajatlar (shaharlar va shaharchalarni obodonlashtirish ishlari, qishloq xo'jaligiga yordam ko'rsatish va boshqa turdagi ishlar).

Bankning hisobot davrining solliq solinadigan foydasidan kelgusida chegiriladigan xarajatlari mavjud bo'lib, ushbu xarajatlar ular yuzaga kelgan paytda, joriy hisobot davrida solliq solinadigan foydani hisoblab chiqarishda chegirilmaydi, ular keyingi davrlarda, solliq to'lovchining hisob siyosati bilan belgilangan, lekin uch yildan ko'p bo'lmagan muddat ichida chegirilishi lozim. Bunday xarajatlarga quyidagilar kiradi:

yangi filiallarni faoliyatini boshlashga tayyorlash bilan bog'liq xarajatlar:

filialni belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazish uchun zarur bo'lgan davlat bojlari va boshqa to'lov turlarini to'lash;

ro'yxatdan o'tkazishga qadar filial xodimlari mehnatiga haq to'lash;

filial faoliyati boshlanishga tayyorlanish ustidan texnik nazorat qilish guruhini tutib turish;

filial faoliyatini boshlash uchun zarur bo'lgan kompyuter uskunalari va texnikani montaj qilish xarajatlari;

filialni aloqa vositalari va telekommunikatsiyalarga ulash xarajatlari;

yangi ochiladigan filialda ishlash uchun kadrlarni tayyorlash xarajatlari va boshqa shu kabi xarajatlar.

Barcha turdagi asbob-uskunalar va texnik qurilmalarni, ularning o'rnatilish sifatini tekshirib ko'rish maqsadida kompleks sinab kurish (ishlab turgan holatida) xarajatlari; ishchi kuchlari qabul qilish va yangi ishga tushirilgan filialda ishlash uchun kadrlar tayyorlash bilan bog'liq xarajatlar;

asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning jadallashtirilgan usulda hisoblangan amortizatsiya summasi bilan Solliq kodeksning 144-moddasiga muvofiq belgilangan normalar bo'yicha hisoblangan amortizatsiya summasi o'rtasidagi farq. Bankning solliq solinadigan foydasi quyidagi summaga kamaytiriladi:

1) ekologiya, sog'lomlashtirish va hayriya jamg'armalariga,

madaniyat, sog'liqni saqlash, mehnat organlari, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, ta'lim muassasalariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga beriladigan badallar, homiylik va hayriya tariqasidagi mablag'lar summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning ikki foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda; yosh oilalar toifasiga kiruvchi xodimlarga ipoteka kreditlari badallari to'lashga va (yoki) mulk sifatida uy-joy olishga tekin yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga, biroq soliq solinadigan bazaning 10 foizidan oshmagan miqdorda; o'tgan soliq davrlarida ko'rilgan zararlar summasiga joriy soliq davridagi soliq solinadigan foydani kamaytirishga haqli, lekin soliq solinadigan foydaning 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda. Soliq to'lovchi ko'rilgan zararlarni ushbu zarar ko'rilgan soliq davridan keyingi besh yil ichida amalga oshirishga haqlidir; Bank tomonidan bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasiga xomiylik yordami tarzida o'tkazgan mablag'lari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 iyuldagi PQ-1166-sonli Qaroriga muvofiq, kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab foyda solig'i tabaqalashtirilgan stavkalar bo'yicha to'lanadi (PQ-2344-sonli qarorga asosan 2020 yilga qadar):

<b>Kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushi</b>	<b>Tijorat banklaridagi foyda solig'innng imtiyozli stavkalari (amaldagn stavkadan %da)</b>
35%dan40% gacha	80%
40°/odan 50% gacha	75%
50%dan yukori	70%

*Izoh: Uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashga - uch yildan kam bo'lmagan muddatga beriladigan investitsiyaviy kreditlar va lizing xizmatlari, shu jumladan, banklar tomonidan olinadigan ishlab chiqarish*

korxonalari negizida tashkil etiladigan kompaniyalar aktivlariga banklar tomonidan yo'naltiriladigan mablag'lar kiradi. O'stirmaslik maqomini olgan kredit bo'yicha hisoblab yozilgan foizlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibga muvofiq daromadlar hisobvarag'idan hisobdan chiqariladi.

3-topshiriq. Tijorat banklari tomonidan to'lanadigan soliqlar hisobini o'zlashtiring.

Tijorat banklari foyda solig'i hisob-kitobini davlat soliq xizmati organlariga qonunchilikda belgilangan shakl bo'yicha taqdim etadilar. Hisob-kitobga 0204IS-son shakldagi "Foyda va zararlarto'g'risidagi hisobot" ilova qilinishi lozim.

Foyda solig'i har oyda xarajatlarga o'tkaziladi. Foyda solig'ini hisoblashda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

*Debet 56902 "Daromad solig'ini baholash";*

*Kredit 22502 "Hisoblangan foyda solig'i - to'lanadigan".*

Hisobot choragi tugagandan keyin, 22502-hisobvaraqdagi foyda solig'ining haqiqiy summasi hisobidan hisobot choragi mobaynida 19931-hisobvaraqdan to'lab kelingan foyda solig'i taxminiy summasi qoplanib, o'rtadagi ijobiy farq (foyda solig'i haqiqiy summasi taxmin qilingandan ortiqcha bo'lganda) byudjetga to'lab beriladi, salbiy farq (foyda solig'i haqiqiy summasi taxmin qilingandan kam bo'lganda) esa, 19931-hisobvaraqda foyda solig'i bo'yicha ortiqcha to'lov summasi sifatida qoladi. Ushbu ortiqcha to'lov summasini keyingi choraklarda foyda solig'i va boshqa soliqlar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan soliq summalari hisobiga hisobga olish yoki qaytarish bo'yicha choralar ko'rilishi lozim.

Foyda solig'ining haqiqiy summasi hisobidan hisobot choragi mobaynida to'lab kelingan foyda solig'i taxminiy summasi qoplanganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

*Debet 22502 "Hisoblangan foyda solig'i - to'lanadigan"; Kredit 19931 "Muddati uzaytirilgan soliqlar".*

Foyda solig'ining haqiqiy summasi bilan taxmin qilingan summasi o'rtasidagi ijobiy farq summasi byudjetga to'langanda:

*Debet 22502 "Hisoblangan foyda solig'i - to'lanadigan";*

*Kredit 23402-"Respublika byudjetining mablag'lari – yagona g'azna hisobvarag'i".*

Taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi hisobot davri uchun byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasiga nisbatan 10 foizdan ko'proq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to'lovlarni yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining haqiqiy summasidan kelib chiqib penya hisoblagan holda qayta hisoblaydi.

**Uyga vazifa.** "Tijorat banklarida soliqlar va yig'imlar hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari" mavzusida referat tayyorlash va mashg'ulot jarayonida taqdimot qilish.

## **5-mavzu. Banklarda balansdan tashqari operatsiyalar hisobi**

### **1-topshiriq. Quyidagi savollarga qisqa matnda javob yozing:**

1. Banklarda balansdan tashqari operatsiyalar hisobining mazmuni nimalardan iborat?

2. Bank kafolatlari va ularning hisobi qanday tashkil etiladi?
3. Muddatli bitimlar va ularning hisobining huquqiy-uslubiy asoslari nimalardan iborat?
4. Banklarda qimmatliklarni saqlash xizmatlari hisobi qanday tashkil etiladi?
5. Trast operatsiyalari hisobi haqida nimalarni bilasiz?

**2-topshiriq. Quyida keltirilgan balansdan tashqari hisobvaraqlar bo'yicha amaliy misolla keltiring:**

- to'lovga yaroqsiz va ekspertizaga qabul qilingan banknot va tangalar;
- hujjatli qimmatli qog'ozlar blankalari va hujjatsiz qimmatli qog'ozlar;
- bankning plastik kartalari, terminallari, bankomatlari va infokioskalari;
- savdoga oid moliyalashlar; aktivlar bo'yicha foizlar va vositachilik haqlari;
- bankning kredit va lizing majburiyatlari;
- qarzdorlarning kredit va lizing majburiyatlari;
- hosilaviy instrumentlar bo'yicha transaksiyalar;
- qimmatli qog'ozlar bo'yicha muddatli bitimlar;
- saqlanayotgan qimmatli qog'ozlar va boshqa qimmatbaho buyumlar;
- garov sifatidagi qimmatli qog'ozlar, mulklar va mulkiy huquq(talab)lar.

**3-topshiriq. Quyida keltirilgan balansdan tashqari hisobvaraqlar bo'yicha buxgalteriya provodkalarini yozing:**

- 90100 To'lovga yaroqsiz va ekspertizaga qabul qilingan banknot

va tangalar;

- 90300 Hujjatli qimmatli qog'ozlar blankalari va hujjatsiz qimmatli qog'ozlar;

- 90400 Bankning plastik kartalari, terminallari, bankomatlari va infokioskalari;

- 90900 Savdoga oid moliyalashlar;

- 91500 Aktivlar bo'yicha foizlar va vositachilik haqlari;

- 91800 Bankning kredit va lizing majburiyatlari;

- 91900 Qarzdorlarning kredit va lizing majburiyatlari;

- 92700 Hosilaviy instrumentlar bo'yicha transaksiyalar;

- 92800 Qimmatli qog'ozlar bo'yicha muddatli bitimlar;

- 93600 Saqlanayotgan qimmatli qog'ozlar va boshqa qimmatbaho buyumlar;

- 94500 Garov sifatidagi qimmatli qog'ozlar, mulklar va mulkiy huquq(talab)lar;

- 95400 Boshqa ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari;

- 96300 Ko'zda tutilmagan holatlar kontr-hisobvaraqlari.

**4-topshiriq. Quyidagi balansdan tashqari hisobvaraqlar bo'yicha keltirilgan matnni o'qing va tushirib qoldirilgan so'zlarni topib joyiga joylashtiring. Topshiriqni uyda yakunlash mumkin:**

Ekspertizaga qabul qilingan pullar ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari orderlari asosida 90141 "Ekspertizaga qabul qilingan banknot va tangalar" hisobvarag'iga o'z \_\_\_\_\_ qiymati bo'yicha kirim qilinadi. Inkassatsiya qilingan pul tushumini qayta sanash vaqtida yoki taftish, tekshiruv va boshqa hollarda ularning to'lovga yaroqliligiga shubha tug'diradigan pul va tangalar ham aynan shu \_\_\_\_\_ kirim qilinadi.

Debet 90141 - Ekspertizaga qabul qilingan banknot va tangalar

Kredit 96303 — Banknot, tanga va boshqa qiymatliklar xarakati bo'yicha kontr-hisobvaraqlar.

Debet 90143 - Ekspertizaga qabul qilingan yo'ldagi banknot va tangalar

Kredit 96303 — Banknot, tanga va boshqa qiymatliklar xarakati bo'yicha kontr-hisobvaraqlar.

To'lov hujjatlari ko'zda tutilmagan hisobvaraqlarda to'lov muddatini kutayotganda yoki o'z muddatida to'lanmaganda hisobga olinadi. Buning uchun 2 ta kartoteka ochilgan bo'lib, ularning biri kartoteka 1 ya'ni To'lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari kartotekasi, ikkinchisi kartoteka

2 Muddatida to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari kartotekasidir.


- 90962 - To'lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari
- 90963 - Muddatida to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari
- 96319 - To'lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari bo'yichakontr-hisobvaraqlar.
- 96321 - Muddatida to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari bo'yicha kontr-hisobvaraqlari hisoblanadi.

### **Mavzu: Valyuta operatsiyalari hisobi (1-amaliy)**

**1-topshiriq.** Quyida berilgan savollarni o'rganib chiqing va og'izaki javob bering.

1. O'zbekiston Respublikasi valyuta munosabatlarini tartibga solish qanday amalga oshiriladi?
2. Valyuta operatsiyalarini tashkil etish va hisobi haqida nimalarni bilasiz?
3. Valyutalarini sotib olish va sotish bilan bog'liq operatsiyalar hisobi yuzasidan qanday buxgalteruya yozuvlari yoziladi?
4. Valyuta ayirboshlash shahobchalarida naqd pul va chet el valyutasi hisobini yuritish tartibi qanday amalga oshiriladi va ushbu yo'nalishda qanday buxgalteriya provodkalri beriladi?

**2-topshiriq.** Валюта операциялари turi bo'yicha 5-minutli "Esse" yozing va asoslab bering. "Esse" yozishda quyidagi ketma-ketlikka amal qiling:

	<b>Valyuta operatsiyalari: ichki va xalqaro operatsiyalarga bo'linadi</b>
	<i>Ichki valyuta operatsiyalar O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkaziladigan operatsiyalardir</i>
	<i>Xalqaro (traschegaraviy) valyuta operatsiyalari va joriy xalqaro operatsiyalarga va kapital harakati (kapital o'tkazmalari) operatsiyalariga bo'linadi</i>

**3-topshiriq.** Quyida keltirilgan o'tkazmalar joriy xalqaro o'tkazmalarining qaysi turiga tegishli ekanligini aniqlang va ushbu ketma-ketliklar qatorini yodda saqlang:

- tashqi savdoni, boshqa joriy faoliyatni yuritish, shu jumladan xizmatlar ko'rsatish (ishlar bajarish) munosabati bilan to'lanishi lozim bo'lgan barcha to'lovlar;
- foizlar va boshqa daromadlar shaklida, shu jumladan bankomonatlari, kreditlar, lizing bo'yicha foizlar va boshqa daromadlar shaklida, shuningdek boshqa investitsiyalardan olinadigan sof daromad shaklida to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlar;
- kreditni (qarzni) to'lash davrida qarzning olingan, shartnomada ko'rsatilgan to'lash davrlari soniga nisbati sifatida hisob-kitob qilingan qismining ikki baravaridan ortiq bo'lmagan miqdordagi summani to'lash;
- nosavdo tusidagi pul o'tkazmalari.

**4-topshiriq.** Bank tomonidan chet el valyutasi uchun to'lov jismoniy shaxs (YaTT) tomonidan milliy valyutada operatsiya bajariladigan kundagi sotish kursida amalga oshirilganda va tegishli tasdiqlovchi hujjatning (chek vaboshqa) asl nusxasi mijozga berilganda qanday buxgalteriya provodkalri beriladi?

- Debet 22617000-----;
- 22618000-----;
- Kredit 23516000 -----;
- Debet 17409000 -----;
- Kredit 17101000- -----.
- ----- Xorijiy valyuta sotib olish uchun jismoniy shaxslarning

plastik kartalaridan o'tkazilgan pul mablag'lari;

- ----- Qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa ulovlar bo'yicha plastik kartalardan xisobdan chiqarilishi lozim bulgan pul mablag'lari bo'yicha tranzit xisobraqam.

- ----- valyuta pozitsiyasi xisobvaraklari (balansda aks etadi);

- -----Xorijiy valyuta sotib olish uchun bank kassalariga naqd pullarni topshirgan jismoniy shaxsning plastik kartalaridan foydalangan holda o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'lar bo'yicha tranzit hisobvaraqlar.

- -----;

- ----- Jismoniy shaxslarning plastik kartochkalari.

**5-topshiriq.** Quyidagi buxgalteriya provodkalari mazmunidan kelib chiqib, valyuta operatsiyalari hisobi bo'yicha masala tuzing.

a) 09002-sotib olish;

b) 09007-sotish.

- 1) Dt-10109000-Yuldagi nakd pullar va boshka tulov xujjatlari-5000000

- Kt-10101000- Aylanma kassadagi nakd pullar.-5000000

- Dt-10103000-Pul almashtirish shaxobchalaridagi nakd pullar-5000000

- Kt-10109000- Yuldagi nakd pullar va boshka tulov xujjatlari.-5000000.

**Uyga vazifa.** Ma'ruzada berilgan matnni o'qing va matndan kalit so'zlarni ajrating.

**Mavzu: 1.2. Valyuta operatsiyalari hisobi (2-amaliy)**

**1-topshiriq.** Quyida berilgan misollar asosida buxgalteriya provodkalarini yozing.

Misolimizda keltirilganidek, bir kunlik operatsiyalar jarayonida bank sotib va sotib olish orasidagi kursdan 12000 sum daromad ko'rdi. Buni 17101000 xisob raqamda (-12000) sum qoldiq qolgani orqali ifodalasak buladi. Ya'ni 17101000 xisob raqami qoldig'ini 45401-" Xorijiy valyutalarda ko'rilgan foyda" xisob raqamiga o'tkazamiz. Ushbu holatda qanday buxgalteriya o'tkazmasi beriladi:

Dt----- - 12000

Kt----- -12000



Svop bitimi tuzilayotganda, ushbu bitim ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlarida svop bitimi yakunidagi ayirboshlashga lozim bo'lgan valyuta miqdorida qanday buxgalteriya o'tkazmasini amalga oshirish orqali aks ettiriladi:

a) agarda, bank svop bitimining birinchi qismi bo'yicha chetel valyutasini xarid qilayotgan bo'lsa:

Dt 92736 - "Svop shartlarida **sotib olish**";

Kt 96373 - "Svop shartlari bilan sotib olish kontr-hisobvarag'i";

b) agarda, bank svop bitimining birinchi qismi bo'yicha chetel valyutasini sotayotgan bo'lsa:

Dt 92732 - "Svop shartlarida **sotish**";

Kt 96371 - "Svop shartlari bilan sotish kontr-hisobvarag'i".

Ushbu holatlar yuzasidan boshlang'ich buxgalteriya hujjatlari ro'yxatini tuzing va esda saqlang.

**Uyga vazifa. Chet el valyutasini sotib olish operatsiyalarining hamda valyutani qayta baholashdan keyin foyda va zararlarni aniqlashning buxgalteriya hisobi bo'yicha quyida berilgan masalalarni bajaring:**

20\_\_ yil 14 sentabr holatiga jamlanma balans hisobotida hisobvaraqlarda quyidagi qoldiqlar ko'rsatilgan:

Hisobvaraq	Dollardagi kitob (AQSH dollarida)	Dollardagi kitob (\$1 uchun 8.092,13 so'm qayta baholash kursi bo'yicha)	So'mdagi kitob	Jami
Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'idagi mablag'lar	\$1.000	8.092.130	8.000.000.000	8.008.092.130
Boshqa aktivlar			69.000.000.000	69.000.000.000
Jami: Aktivlar		—	77.000.000.000	77.008.092.130

Mijozlar ning mablag‘lari	\$1.000	8.092.1 30	10.000.000 .000	10.008.092 .130
Boshqa majburiyatlar			67.000.000 .000	67.000.000 .000
Jami: majburiyatlar va kapital		—	77.000.000 .000	77.008.092 .130

1. Bankning mijozidan 1.000 AQSH dollari sotib olindi. 1 AQSH dollari uchun bankning sotib olish kursi 8.071,00 so‘m

Sana 15.09.20\_\_yil

Qayta hisoblash kursi — 1 AQSH dollari uchun 8.092,13 so‘m

1.000 AQSH dollari sotib olishni aks ettirish bo‘yicha buxgalteriya yozuvlari:

Dollardagi kitob			So‘mdagi kitob		
Dt 202XX- Mijoz hisobvarag‘i	\$1.0 00		Dt 17101- «Valyuta pozitsiyasi hisobvaraqla ri»	8.071.0 00	
Kt 17101- «Valyuta pozitsiyasi hisobvaraqla ri»		\$1.0 00	Kt 202XX- Mijoz hisobvarag‘i		8.071.0 00

Chet el valyutasidagi operatsiyadan foydani aks ettirgungacha bo‘lgan jamlanma balans hisoboti:

Hisobvar aq	Dollar dagi kitob (AQSH dollarida)	Dollard agi kitob (\$1 uchun 8.092,13 so‘m qayta baholash kursi bo‘yicha)	So‘mdagi kitob	Jami
Markazi y bankdagi vakillik hisobvarag‘id agi mablag‘lar	\$1.000	8.092.1 30	8.000.000. 000	8.008.092. 130
Valyuta pozitsiyasi hisobvaraqlari	(1.000)	(8.092.1 30)	8.071.000	(21.130)

Boshqa aktivlar	-	-	69.000.000 .000	69.000.000 .000
Jami: Aktivlar	-	-	77.008.071 .000	77.008.071 .000
Mijozlar ning mablag‘lari	-	-	10.008.071 .000	10.008.071 .000
Boshqa majburiyatlar	-	-	67.000.000 .000	67.000.000 .000
Jami: majburiyatlar va kapital	-	-	77.008.071 .000	77.008.071 .000

17101-hisobvaraqlarning kredit qoldig‘i chet el valyutasidagi operatsiyadan 21.130 so‘m miqdoridagi foydani ko‘rsatmoqda. Foydani aks ettirish bo‘yicha buxgalteriya yozuvi:

Dollardagi kitob		So‘mdagi kitob		
Buxgalteriya yozuvi yo‘q		Kt 17101- «Valyuta pozitsiyasi hisobvaraqlari»	21.130	
		Kt 45401-«Spot» bitimi bo‘yicha xorijiy valyutalardagi foyda»		21.130

Foyda aks ettirilgandan keyin jamlanma balans hisoboti:

Hisobvaraq	Dollardagi kitob (AQSH dollarida)	Dollardagi kitob (\$1 uchun 8.092,13 so‘m qayta baholash kursi bo‘yicha)	So‘mdagi kitob	Jami
Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag‘idagi mablag‘lar	\$1.000	8.092.1 30	8.000.000. 000	8.008.092. 130
Valyuta pozitsiyasi hisobvaraqlari	(1.000)	(8.092.1 30)	8.092.130	
Boshqa aktivlar	-	-	69.000.000 .000	69.000.000 .000
Jami: Aktivlar	-	-	77.008.092 .130	77.008.092 .130

Mijozlar ning mablag‘lari	-	-	10.008.071 .000	10.008.071 .000
Boshqa majburiyatlar	-	-	67.000.000 .000	67.000.000 .000
Sof foйда (zarar)	-	-	21.130	21.130
Jami: majburiyatlar va kapital	-	-	77.008.092 .130	77.008.092 .130

2. Operatsiya amalga oshirilmadi. Qayta baholash va moliyaviy hisobotni tuzish.

Sana 30.09.20\_\_yil

Qayta hisoblash kursi — 1 AQSH dollari uchun 8.077,48 so‘m

Chet el valyutasidagi hisobvaraqlar qoldiqlarini qayta baholashdan zararni aks ettirgungacha bo‘lgan so‘mdagi jamlanma balans hisoboti:

Hisobvar aq	Dollar dagi kitob (AQSH dollarida)	Dollard agi kitob (\$1 uchun 8.077,48 so‘m qayta baholash kursi bo‘yicha)	So‘mdagi kitob	Jami
Markazi y bankdagi vakillik hisobvarag‘id agi mablag‘lar	\$1.000	8.077.4 80	8.000.000. 000	8.008.077. 480
Valyuta pozitsiyasi hisobvaraqlari	(1.000)	(8.077.4 80)	8.092.130	14.650
Boshqa aktivlar	-	-	69.000.000 .000	69.000.000 .000
Jami: Aktivlar	-	-	77.008.092 .130	77.008.092 .130
Mijozlar ning mablag‘lari	-	-	10.008.071 .000	10.008.071 .000
Boshqa majburiyatlar	-	-	67.000.000 .000	67.000.000 .000
Sof foйда (zarar)	-	-	21.130	21.130

Jami: majburiyatlar va kapital	-	-	77.008.092 .130	77.008.092 .130
--------------------------------------	---	---	--------------------	--------------------

17101-hisobvaraqlarning debet qoldig'i hisobotni tuzish sanasiga valyutani qayta hisoblashdan 14.650 so'm miqdoridagi zararni ko'rsatmoqda. Zararni aks ettirish bo'yicha buxgalteriya yozuvi:

Dollardagi kitobda		So'mdagi kitobda		
Buxgalteriya yozuvi yo'q		Dt 55302-«Spot» bitimlari bo'yicha xorijiy valyutalarda ko'rilgan zararlar»	14.650	
		Kt 17101-«Valyuta pozitsiyasi hisobvaraqlari»		14.650

Zarar aks ettirilgandan keyin jamlanma balans hisoboti:

Hisobvaraq	Dollardagi kitob (AQSH dollarida)	Dollardagi kitob (\$1 uchun 8.077,48 so'm qayta baholash kursi bo'yicha)	So'mdagi kitob	Jami
Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'idagi mablag'lar	\$1.000	8.077.480	8.000.000.000	8.008.077.480
Valyuta pozitsiyasi hisobvaraqlari	(1.000)	(8.077.480)	8.077.480	
Boshqa aktivlar	-	-	69.000.000.000	69.000.000.000
Jami: Aktivlar	-	-	77.008.077.480	77.008.077.480
Mijozlar ning mablag'lari	-	-	10.008.071.000	10.008.071.000
Boshqa majburiyatlar	-	-	67.000.000.000	67.000.000.000
Sof foyda (zarar)	-	-	6.480	6.480

Jami: majburiyatlar va kapital	-	-	77.008.077 .480	77.008.077 .480
--------------------------------------	---	---	--------------------	--------------------

## 2-Mavzu. Banklarda moddiy va nomoddiy aktivlar hisobi

**1-topshiriq.** Quyida berilgan savollarga qisqa matnda javob yozing:

1. Bank asosiy vositalarining mazmuni va ularning turlari.
2. Bank asosiy vositalarining hisobi.
3. Amortizatsiya hisoblash usullari va tartibi.
4. Asosiy vositalarni kirim qilish, qayta baholash, ijaraga berish, hisobdan chiqarish va foydalanish tartibi hamda hisobga olinishi.
5. Nomoddiy aktivlar mohiyati, turlari va ularni hisobga olish.
6. Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hisobi.

**2-topshiriq.** Quyida berilgan matnni o'qing va mavzu qo'ying. Matndagi asosiy kalit so'zlar yuzasidan "Klaster" tuzing.

*Asosiy vositalar* - bir yildan ko'proq xizmat qilish muddatiga ega bo'lgan, ishlab chiqarish yoki tovarlarni yetkazib berish, ma'muriy maqsadlar uchun foydalaniladigan yoki ijaraga beriladigan aktivlar.

*Ko'chmas mulk, uskunalar va jihozlar* - bir yildan ortiq muddat foydalanishga mo'ljallangan, ishlab chiqarish yoki tovarlarni yetkazib berish, ma'muriy maqsadlar uchun foydalaniladigan yoki ijaraga beriladigan moddiy aktivlar. Ular, asosiy vositalar tarkibiga kiradi. Shuning uchun ular ko'proq asosiy vositalar deb atashadi.

*Boshlang'ich (tarixiy) qiymat* - asosiy vositani sotib olish yoki uni qurish (qurish va qurilishni tugallash) bilan bog'liq barcha xarajatlar, shu jumladan, to'langan soliqlar, bojxona bojlari va yig'implari hamda yetkazib berish, montaj, o'rnatish va ishga tushirish bilan bog'liq bevosita aktivlardan belgilangan maqsadafoydalanish uchun uni ishchi holatiga keltirish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar summasidir. Shuning uchun boshlang'ich qiymat asosiy vositaning tannarxi deb ham ataladi.

Asosiy vositalarni boshlang'ich qiymati qayta baholangan sanaga nisbatan haqqoniy bahoni aks ettirish uchun oldindan qayta baholanadi;

*Balans qiymati* - bu aktivning balans hisobotida jamg'arilgan eskirish va qiymatini yo'qotishdan keladigan zararni chiqarib tashlagandan keyingi qolgan summa.

*Likvidatsion(tugatilish) qiymat* – aktiv eskirib, o'zining foydalanish xizmat muddati oxirida ega bo'ladigan, ya'ni shu vaqtda bank ushbu aktivni tugatish bilan

bog'liq harajatlarni chiqarib tashlagandan so'ng, uni hisobdan chiqarishdan olinadigan, baholangansumma.

*Haqqoniy (real) qiymat* – bu aktivning joriy bozor qiymati yoki o'zaro manfaatdor tomonlar o'rtasida aktivlarni almashtirish mumkin bo'lgan summadir. Mazkur aktivning faol bozori mavjud bo'lmagan taqdirda haqqoniy qiymat qonunchilikka muvofiq, baholash faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan mustaqil ekspertlar tomonidan aniqlangan qiymatdir.

*Qayta tiklangan qiymat* – bu asosiy vositaning bank buxgalteriya balansidagi qayta baholangan qiymati.

*Foydali xizmat muddati* – bu bank tomonidan aktivlardan foydalanish mo'ljallanayotgan davr yoki ushbu aktivdan foydalanishdan bank qo'lga kiritishni kutayotgan ish va xizmatlar miqdori.

*Amortizatsiya (eskirish)* - aktivning iqtisodiy hayoti mobaynida uning eskirish hisoblanadigan qiymatini muttasil va oqilona ravishda taqsimlanishi.

*Amortizatsiyalanadigan qiymat* – aktivning tannarxi yoki tannarxni almashtiradigan boshqa qiymatidan tugatilish qiymatichegirilgan summadir.

*Qiymatni pasayishi (qadrsizlanish) dan olingan zarar* - aktivning balans qiymatini uning qoplanish qiymatidan oshgan summasi. Qoplanadigan summa - aktivni sof sotish va uning foydalanish qiymatidan eng katta bo'lgan qiymat.

*Foydalanish (qimmatlilik) qiymati* – aktivning foydalanish xizmati muddati mobaynida olininishi ko'zda tutilayotgan va ushbu aktivni hisobdan chiqarishdan olinadigan pul tushumlarining diskontlangan qiymati.

*Sof sotish qiymati* - o'zaro bir-biriga qaram bo'lmagan tomonlar o'rtasida tuzilgan bitim asosida aktivlarni sotilishidan olinishi mumkin bo'lgan, aktivni chiqib ketishi bilan bog'liq xarajatlarni chegirgan summa.

*Ayirboshlash* - korxonalar orasida aktivlarni berish yoki boshqa turdagi xizmatlarni bajarish yoxud boshqa aktivlarni berish evaziga majburiyatlarni qoplash yuzasidan o'zaro bir-biriga yetkazib berish.

*Bir taraflama berish* - aktivlar yoki xizmatlarni bir taraflama berish, bankdan uning mulkdorlariga yoki teskarisi, mulkdorlar va boshqa tashkilotlardan muayyan bankka.

*Tugatish qiymati* - asosiy vositalarning foydali xizmat qilish muddati oxirida asosiy vositalarni tugatishdan olinadigan qiymatdan taxmin qilinayotgan chiqib ketish xarajatlarini ayirgandan keyingi qolgan qiymati.

*O'xshash ishlab chiqarish aktivlari* - bir umumiy turga mansub bo'lgan, bir xil vazifalarni bajaradigan yoki xuddi o'sha xo'jalik faoliyatida ishlatiladigan ishlab chiqarish aktivlari.

Asosiy vositalar hisobida to'rt asosiy masala mavjud:

asosiy vositalar qabul qilinishida dastlabki ro'yxatdan o'tkazish summasi yoki uning tannarxini aniqlash. Bu qiymat asosiy vositaning boshlang'ich-tarixiy qiymati bo'ladi.

asosiy vositalar qiymatini kelgusi davrlarga taqsimlash uchun aniqlangan eskirish usuli va stavkasini belgilash.

asosiy vositalar olingandan keyin qiymatining o'zgarishi, shu jumladan qiymatining ko'payishi yoki mumkin bo'lgan kamayishi, kamayishining oqibatlari hisobvaraqlarda qanday qilib aks ettirilishi.

asosiy vositalarni hisobdan chiqarishni ro'yxatga olish.

Asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini 16-MHXS "Asosiy vositalar" nomli standart bo'yicha tartibga solish tavsiya etiladi. Asosiy vositalar bankda ham, boshqa korxonada va tashkilotlarda ham bir xil ahamiyatga ega.

Lekin, banklarda asosiy vositalarning hisobi bilan bog'liq buxgalteriya o'tkazmalari O'zbekiston Respublikasi banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini yuritish "O'zbekiston Respublikasi banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini yuritish to'g'risida"gi yo'riqnoma (Ro'yxat raqami 1434, 2004 yil 17 dekabr) talablari asosida amalga oshiriladi. Ushbu yo'riqnoma yuqorida qayd etilgan MHXS 16 ga muvofiq ishlab chiqilgan yoki uning qoidalari to'la xalqaro standartlarga mos keladi.

Banklarda asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini tushuntirishda ushbu yo'riqnoma qoidalaridan foydalaniladi.

Asosiy vositalar ob'yekti aktiv sifatida MHXSning umumiy qoidalari asosida tan olinishi kerak, ya'ni:

- aktiv bilan bog'liq bo'lgan kelgusi iqtisodiy naflar bank tomonidan olinishi ehtimoli yuqori darajada deb tasdiqlanganda; va
- korxonada uchun aktivning tannarxi ishonchli baholanishi mumkin bo'lganda.

Aktivdan foydalanish natijasida kelajakda keladigan iqtisodiy samara, bank tomonidan undan foydalanish natijasida yuzaga kelgan xizmatlarni sotishdan tushadigan tushumni, xarajatlarni tejash va boshqa foydalarni o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu iqtisodiy naflarni olish ehtimoli yuqori bo'lganda bank aktiv bilan bog'liq manfaatlarni va tavakkalchiliklarni o'z zimmasiga olishi aniq bo'lishini talab etadi. Bunday aniqlik ushbu manfaatlar va tavakkalchiliklar bankka o'tgandagina, mavjud bo'ladi. Ushbu vaqtga qadar aktivni olish bilan bog'liq operatsiya ahamiyatli bo'lmagan jarima choralari bilan bekor qilinishi mumkin, shuning uchun aktiv tan olinmaydi.

Tan olishning ikkinchi sharti osonlik bilan bajo keltiriladi, chunki aktivlarni sotib olinganligi to'g'risida dalil bo'lgan ayirboshlash operatsiyasi natijasida uning qiymati aniqlanadi. Aktiv o'z kuchi bilan barpo etilgan taqdirda uning bahosi materiallarni sotib olish bilan bog'liq tashqi tomonlar bilan operatsiyalar, ish kuchi va qurilish jarayonida amalga oshirilgan boshqa xarajatlar asosida aniqlanadi.

Asosiy vosita qiymati ishonchli tarzda baholangandagina, u bankning buxgalteriya yozuvlarida aks ettirilib, tan olinadi. 16-sonli BHXS: Aktiv sifatida tan olinadigan asosiy vositalar ob'yekti dastlab tannarxi bo'yicha baholanishi kerak. Sotib olingan asosiy vositalar balansda boshlang'ich (tarixiy) qiymati yoki agar, keyinchalik qayta baholangan bo'lsa, demak u qayta baholangan qiymati bo'yicha aks ettiriladi.



Sotib olingan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati, quyidagi xarajatlarni o'z ichiga oladi:

- aktivni yetkazib beruvchilarga va shartnomaga asosan qurilish-montaj ishlarini bajarilishi uchun ijarachilarga to'langan summa;
- asosiy vositalarni ob'yektini sotib olish uchun to'langan ro'yxat bo'yicha yig'imlar, davlat boji (bojxona boji, yig'imlar va boshqalar) va boshqa o'xshash to'lovlar;
- asosiy vositalar ob'yektini sotib olish (yaratish) bilan bog'liqsoliqlar va yig'imlar (agar ular qayta qoplanmagan bo'lsa);
- asosiy vosita ob'yektini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan axborot va maslahat xizmati uchun to'lovlar summasi;
- ob'yektini yetkazib berish bo'yicha sug'urta riski xarajati;
- asosiy vositani olishda o'rtada turganlarga mukofot puli;
- yetkazib berish, montaj, o'rnatish va ishga tushirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;
- bevosita aktivdan belgilangan maqsadda foydalana olish uchun uni ishchi holatiga keltirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar. Xorijiy valyuta hisobiga sotib olingan asosiy vositalar balansda davlat bojxona deklaratsiyasi rasmiylashtirilgan kundagi Markaziy bankning kursi bo'yicha milliy valyutada aks ettiriladi hamda xorijiy valyutaning kursi o'zgarishi munosabati bilan ular qayta baholanmaydi.

Ma'lum hollarda aktiv bilan bog'liq xarajatlarning umumiy summasini alohida qismlarga bo'lish va har bir qismni alohida hisobga olish lozim. Bunday hisob yuritish ushbu ob'yektning alohida qismlari har xil foydali xizmat qilish muddatiga ega bo'lgan holda amalga oshiriladi.

Tekinga olingan asosiy vositalar, ularni sotib olishda ko'rsatilganidek avvaliga balansda xarajatlarni hisobga olgan holda buxgalteriya hisobiga olingan sanaga nisbatan xaqqoniy qiymatda tan olinadi. Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatiga kelgusida aniq xarajatlar qilinganda, ular qayta baholanganda, chiqarib tashlanganda va asosiy vosita ob'yekti yoki uning ayrim bo'lagi sotilganda, tuzatishlar kiritilishi mumkin. Bankning balansiga asosiy vositalar quyidagi hollarda olinadi:

Naqd pulga, to'lov evaziga sotib olish;

Ob'yektlarni qurish yoki rekonstruksiya qilish yo'li bilan; Pulga oid bo'lmagan operatsiyalar orqali (ayirboshlash); Tekinga olish yoki subsidiya yo'li bilan;

Moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga ko'ra;

Ortiqcha chiqqan (hisobga olinmagan) asosiy vositalar.

Asosiy vositalar, loyiha-tadqiqot ishlari, qurilish materiallari, mehnat, bino (inshoot)lar qurilishi (ta'mirlanishi) bilan bog'liq xarajatlar va asosiy vositalarni sotib olish bilan bog'liq boshqa kapitallashtirilgan xarajatlar qiymatini oldindan to'liq yoki qisman to'lash quyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan rasmiylashtiriladi:

Debet - 19909 «Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i»  
Kredit - Bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijozning (mol yetkazib beruvchining) talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i, agar ularga ushbu bank xizmat ko'rsatsa

Sotib olingan binolar (inshootlar) balansda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan aks ettiriladi:

Debet - 16509 «Bankning imoratlari - Binolar va boshqa qurilgan imoratlar».

Kredit - 19909 «Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i».

Sotib olingan boshqa asosiy vositalarni balansda aks ettirish: Debet - 165\*\* - «Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i».

Kredit - 19909 «Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i».

Asosiy vositalarni omborga kirim qilish quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan rasmiylashtiriladi:

Debet - 16561 «Ombordagi asosiy vositalar».

Kredit - 19909 «Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i».

Ta'mirlashni talab qiladigan sotib olingan binolar ta'mirlash ishlari tugagunga qadar 16505 - «Tugallanmagan qurilishlar» balans hisobvarag'ining alohida shaxsiy hisobvarag'idahisobga olinadi. Bunda binolarni (inshootlarni) qurish

(ta'mirlash) ishlari bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, loyiha-tadqiqot ishlari, qurilish materiallari va mehnat xarajatlari qabul qilish dalolatnomalariga asosan quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali hisobvaraqlarda aks ettiriladi:

Debet - 16505 «Tugallanmagan qurilishlar»

Kt - 19909 «Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i»

Agar keyingi xarajatlar chet ellik hamkor bilan tuzilgan shartnomaga asosan chet el valyutasida amalga oshirilsa, xarajatlarning hisobi 16505 - «Tugallanmagan qurilishlar» hisobvarag'ida operatsiya bajarilgan kundagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha so'mdagi ekvivalentda amalga oshiriladi.

Yil oxirida bankning barcha filiallariga ochilgan 16505-«Tugallanmagan qurilishlar» hisobvaraqlaridagi qoldiq Bosh bankda tugallanmagan qurilishning hajmiga mos kelishi kerak va u keyingi yilga o'tkaziladi.

Binolar (inshootlar) foydalanishga tayyor bo'lgan holda ularning qiymati tegishli qabul qilish dalolatnomasiga asosan 16509 - «Bank imoratlari-binolar va boshqa qurilgan imoratlar» hisobvarag'iga kirim qilinadi. Agar qurilish yoki ta'mirlash ishlarining xarajatlar smetasida mebel va jihozlarni sotib olish ko'zda tutilgan bo'lsa, unda qabul qilish dalolatnomasida ularning qiymati umumiy qiymatdan ajratib ko'rsatiladi va to'liq ro'yxati ilova qilinadi. Bunda quyidagi buxgalteriya yozuvlari rasmiylashtiriladi:

a) binoning qiymati summasiga:

Debet - 16509 «Bankning imoratlari - Binolar va boshqa qurilgan imoratlar»

Kredit - 16505 «Tugallanmangan qurilishlar».b) mebel va jihozlarning qiymati summasiga: Debet - 16535 «Mebel, moslama va jihozlar». Kredit - 16505 «Tugallanmangan qurilishlar».

Agar bank to'lovni moddiy aktivlar kirim qilingandan keyin amalga oshirsa, tegishli kirim hujjatlariga asosan quyidagibuxgalteriya o'tkazmasi bajariladi:

Moddiy aktivlar kelib tushganda balansda aks ettirish:

a) agar asosiy vositalar kelib tushgandan darhol foydalanishgaberilsa:

Debet - 165\*\* Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i, yoki 16505 - «Tugallanmangan qurilishlar» (agar qayta ta'mirlashni talab qiladigan bino, tugallanmagan qurilish yoki qurilish uchunmateriallar sotib olinayotgan bo'lsa).

Kredit - 29802 «Tovar - moddiy qimmatliklar va ko'rsatilganxizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar hisob-kitobi»

b) asosiy vositalar omborga kirim qilinganda:Debet - 16561 «Ombordagi asosiy vositalar»

Kredit - 29802 «Tovar - moddiy qimmatliklar va ko'rsatilganxizmatlarga to'lanadigan mablag'lar hisob-kitobi»

3) Aktivlarning qiymati to'langanda:

Debet - 29802 «Tovar - moddiy qimmatliklar va ko'rsatilganxizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar hisob-kitobi»

Kredit -Bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijozning hisobvarag'i Asosiy vositalarni ombordan foydalanishga topshirganda: Debet - 165\*\* Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i Kredit - 16561 «Ombordagi asosiy vositalar»

Asosiy vositalar bepul olinganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi. Bepul olingan asosiy vositalarning real qiymatiga:

Debet - 165\*\* asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i, yoki 16561 - «Ombordagi asosiy vositalar» (agar omborga kirim qilinsa)

Kredit - 45994 «Boshqa foizsiz daromadlar»

Bunda yuzaga keladigan xarajatlar joriy xarajatlarning hisobiga olinadi.

Agar asosiy vositalar subsidiya yo'li bilan olingan bo'lsa, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet - 165\*\* asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i, Kredit - 22896 - «Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar»

Muddati uzaytirilgan daromadlar tijorat banklarining grant buxgalteriya hisobi qonuniga (21.01.2004 yilda 1300-son bilan ro'yxatga olingan) kelgusida 22896 hisobvarag'ida hisobga olinadi.

Agar (amaldagi qonunchilikka muvofiq byudjetga soliqlar to'lashdan ozod qilingan) banklar asosiy vositalarni bankinfratuzilmasini rivojlantirish doirasida soliqdan ozod qilingan mablag'lar hisobidan sotib olishgan bo'lsa, ularning qiymatini 30903 - "Umumiy zaxira fondi" balans hisobvarag'ining "Bank infratuzilmasini rivojlantirishga sarflangan mablag'lar" shaxsiy hisobvarag'iga kirim qilish quyidagi ko'rinishdagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan rasmiylashtiriladi:

Debet - 30903 «Umumiy zaxira fondi»

«Bank infratuzilmasini rivojlantirish fondiga yo'naltirilgan mablag'lar» sh/h.

Kredit - 30903 «Umumiy zaxira fondi»

«Bank infratuzilmasini rivojlantirishga sarflangan mablag'lar».

Asosiy vositalar yoki ularning ayrim qismlari ko'p hollarda boshqa pul bo'lmagan aktivlarga ayirboshlanishi mumkin. Bunday usulda olingan asosiy vositalar haqqoniy qiymati bilan balansda aks ettirilishi yoki tan olinishi lozim. Faqat quyidagi ikki holatdan tashqari hollarda:

3. Ayirboshlash tijorat maqsadida ega emas yoki foyda olishni ko'zlamagan.

4. Ayirboshlanayotgan asosiy vositalarning haqqoniy qiymatini aniqlash imkoni yo'q.

Ayirboshlashning birinchi sharti, ya'ni u tijorat tavsifiga ega yoki yo'qligi bir necha usullarda aniqlanadi, lekin asosiy shartlaridan biri bu jarayonni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsadga to'g'ri yondashishdan iborat.

Bundan tashqari ayirboshlanayotgan asosiy vositaning xususiyatlari ham inobatga olinadi.

Ayirboshlashning ikkinchi sharti, ya'ni ayirboshlanayotgan asosiy vositalarning haqqoniy qiymatini aniqlash imkoni yo'q bo'lsa, unda ular balans qiymati bilan tan olinadi yoki boshqacha aytganda ularning shu bugungacha balansda qanday summada aks ettirilgan bo'lsa, ularni shu summada yana balansga qabul qilinadi.

Respublikamiz qonunchiligida ham qarzdor mulk garovi ostida olgan krediti bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan holda, bank (garov egasi) o'zining garov huquqidan foydalanishi va garov mulkini sotishi yoki o'z mulkiga aylantirib olishi mumkinligi ko'zda tutilgan. Sotish uchun mo'ljallangan garovga qo'yilgan mulk boshlanishida undirib olinadigan mulk va boshqa ko'chmas mulk hisob-kitobi to'g'risidagi me'yoriy hujjatda aks ettiriladi.

Agar, bank hisobiga o'tadigan mulkdan o'zining asosiy vositasi sifatida foydalanishga qaror qilsa, unda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet - 165\*\* asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i,

Debet - 16799 Bankning boshqa xususiy mulklari bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi

(kontr-aktiv)

Kredit - 16701 Kredit va lizing bo'yicha garov hisobidan undiriladigan mulk.

Asosiy vositalarni qayta baholash uchun quyidagi usullar qo'llaniladi:

- indeks usuli;

- to'g'ridan – to'g'ri qayta baholash usuli.

Indeks usuli. Qayta baholashning indeks usulida asosiy vositalarning balans qiymati va qayta baholash kunidagi shu aktivlarning jamg'arilgan amortizatsiyasi

ma'lum indeksdan foydalangan holda qayta baholanadi. Shundan keyin aktivlarning qayta baholangan qiymati ularning balans qiymati va jamg'arilgan eskirishi bilan taqqoslanadi va o'rtadagi farq summasiga tegishli buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi.

3) Agar aktivning qayta baholangan qiymati uning balans qiymatidan ortiq bo'lsa, ushbu oshgan summa 30908 - «Boshlang'ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi» hisobvarag'ida quyidagi buxgalteriya yozuvi orqali aks ettiriladi:

a) Debet - 165\*\* Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i Kredit - 30908 «Boshlang'ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi»

b) qayta baholashgacha bo'lgan va qayta baholangandan keyingi jamg'arilgan eskirish summolari o'rtasidagi farq summasiga:

Debet - 30908 «Boshlang'ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi»

Kredit - 165\*\* Asosiy vositalarning tegishli jamg'arilgan eskirish hisobvarag'i

v) qayta baholash natijasida asosiy vositaning o'sgan qiymati, ushbu aktiv bo'yicha oldingi qayta baholash natijasiga ko'ra xarajat sifatida hisobga olingan qismi miqdorida daromad sifatida hisobga olinishi lozim.

4) Qayta baholash natijasida asosiy vositalarning real (haqiqiy) qiymati kamaysa, u xarajat sifatida hisobga olinadi. Ushbu summa 30908 - «Boshlang'ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatini oshgan summasi» hisobvarag'idan oldingi qayta baholash natijasida bevosita mazkur aktiv bo'yicha hosil bo'lgan ijobiy summadan ayirib tashlanishi lozim. Bunda quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:

a) qayta baholashgacha bo'lgan va qayta baholangandan keyingi jamlangan eskirish o'rtasidagi farq summasiga:

Debet - 165\*\* Asosiy vositalarning tegishli jamg'arilgan eskirish hisobvarag'i

Kredit - 30908 «Boshlang'ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatini oshgan summasi»

b) qayta baholash natijasida aniqlangan aktiv real (haqiqiy) qiymatning kamayish summasiga:

Debet - 30908 «Boshlang'ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi» (oldingi qayta baholash natijasidagi o'sish miqdoriga)

Kredit - 165\*\* Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i v) 30908-hisobvaraqda aks ettirilgan oldingi qayta baholash summasi yetarli bo'lmagan holda, kamayish va oldingi qayta baholash summolari o'rtasidagi farq summasi xarajat sifatida hisobga olinadi va 55995 «Boshqa foizsiz xarajatlar» hisobvarag'ida aks ettiriladi. Bunda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet - 55995 «Boshqa foizsiz xarajatlar».

Kredit - 165\*\* Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i.

### **Uyga vazifa. Berilgan masalani talab qilingan holatlar bo'yicha bajaring.**

1. 2018 yil 25 mayda qiymati 480000 so'm bo'lgan kompyuter sotib olindi va 16535-hisobvaraqaqa kirim qilindi. Yillik eskirish me'yori 20%. 2020 yil 1 yanvar holatiga jami hisoblangan eskirish summasini aniqlang, tegishli buxgalteriya provodkalarini bering.

2. 2020 yil 1 yanvarda kompyuterning boshlang'ich qiymati va yig'ilgan eskirish summasini e'lon qilingan qayta baholash koeffitsienti (koeffitsiyent-2) ni qo'llagan holda boshlang'ich va eskirish summasini qayta baholang va hisob-kitob natijalariga buxgalteriya provodkalarini yozing.

### **3-mavzu. Bank daromadlari va xarajatlari hisobi (1-amaliy mashg'ulot)**

#### **O'rganiladigan savollar:**

1. Bank daromadlari va ularning tarkibi.
2. Bankning foizli va foizsiz daromadlari, ularning hisobi.

**1-topshiriq.** Berilgan qisqa matnlarni o'qing va mazmuni bo'yicha boshlang'ich buxgalteriya hujjatlari haqida taqdimotli material tayyorlang.

Buxgalteriya hisobida daromad tushunchasi "Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishning konseptual asosi" (MHXS-1)da aktivlarning kelib tushishi yoki ko'payishi yoxud majburiyatlarning kamayishi shaklida iqtisodiy nafning hisobot davrida o'sishi va ushbu o'sishning kapital egalari kapitalga qo'yilmalari bilan bog'liq bo'lmagan ko'payishi sifatida ta'riflangan. Daromad tushunchasi odatdagi faoliyatdan olinadigan daromad va boshqa daromadlarni o'z ichiga oladi.

Daromad sub'yektning faqat o'zi uchun olingan yoki olinadigan iqtisodiy nafning yalpi tushumini qamrab oladi. Uchinchi tomon nomidan undirib olingan summalar, masalan sotishdan soliqlar, tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlar, qo'shilgan qiymatsolig'i, bankka kelib tushadigan iqtisodiy naf bo'lib xizmatqilmaydi va kapitalning ko'payishiga olib kelmaydi. Shu bois, ular daromaddan chiqarib tashlanadi. Shunga o'xshash, vositachilik munosabatlarida, iqtisodiy nafning yalpi tushumi buyurtmachi nomidan undiriladigan summalarini qamrab oladi, lekin tadbirkorlik sub'yektining kapitali oshishiga olib kelmaydi. Buyurtmachi nomidan undirilgan summalar daromad bo'lib hisoblanmaydi, aksincha, daromad vositachilik haqi hisoblanadi.

Banklarda hisobot davridagi barcha daromadlari yalpi daromad deyiladi. Odatda, yalpi daromad tarkibida quyidagi daromad guruhlari ajratiladi:

#### *4. Operatsion daromadlar:*

- 4.1. Foizli daromadlar.
- 4.2. Komission daromadlar.
- 4.3. Moliyaviy bozordagi operatsiyalardan daromadlar.
- 4.4. Boshqa operatsion daromadlar.
5. *Bankning qo'shimcha faoliyatidan daromadlar.*
6. *Boshqa daromadlar.*

Banklar daromadlari tarkibida katta ulushga ega bo'lgan asosiy faoliyatdan daromadlarga, operatsion daromadlar deyiladi Operatsion daromadlar foizli va foizsiz daromadlarga bo'linadi. Bank daromadlarini hisobga olish amaliyotini ko'ribchiqishdan oldin daromadlar tushunchalarini tahlil qilish kerak bo'ladi.

**2-topshiriq.** Tijorat banklarining foizli va foizsiz daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar ro'yxatini tuzing. Foizli va foizsiz daromadlar bo'yicha buxgalteriya provodkalarini tuzing.

**Namuna sifatida:** kredit bo'yicha hisoblangan foizlar quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan aks ettiriladi:

Dt-16309 "Kreditlar bo'yicha olish uchun hisoblangan foizlar"-15.000.000;  
Kt-41400-44700 "Kreditlar bo'yicha foizli daromadlar-15.000.000".

Kredit bo'yicha foiz summasi kelib tushganda, to'lov turiga qarab quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan aks ettiriladi:

Dt-10101 "Aylanma kassadagi naqd pullar" yoki bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijozning hisobvarag'i – 15.000.000;

Kt-16309 "Kreditlar bo'yicha olish uchun hisoblangan foizlar"- 15.000.000.

Hozirgi kunda bank amaliyotida kredit foizi bilan birga kredit berish bo'yicha komission haqlar ham foizli daromadlar tarkibiga kiritilmoqda. YA'ni bank kredit berish majburiyatini olganda mijoz unga komission haq to'laydi. Bu to'lov kreditning amal qilish muddati davomida taqsimlanadi.

**Uyga vazifa. Mavzu yuzasidan ma'ruza mashg'ulotida berilgan matnni o'qing va o'zlashtiring.**

### **3-Mavzu. Bank daromadlari va xarajatlari hisobi (2-amaliy)**

#### **O'rganiladigan savollar:**

1. Bank xarajatlari, ularning tarkibi, bankning foizli, foizsiz va operatsion xarajatlarini hisobga olish.
2. Bank faoliyati moliyaviy natijalarining hisobi.

**1-topshiriq.** Mavzu yuzasidan berilgan manbani o'qing va mavzuga tegishli nazariy manbalar ro'yxatini tuzing.

## **2-topshiriq. Quyida berilgan matn asosida izohli lug‘at bilan ishleng.**

«Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to‘g‘risida»gi Nizomda banklar daromadlar va xarajatlarni hisobga olishda izchillik, ishonchlilik, aniqlik, to‘liqlik va o‘z vaqtidalilik bo‘yichatalablarni o‘z ichiga oladigan hisoblab, yozish usulini qo‘llash bo‘yicha tamoyillarni qo‘llashlari kerak ekanligi va bu tamoyillar qo‘yilgan talablarni bajarish va qo‘llashning tegishli usullari to‘g‘risidagi ko‘rsatmalarni o‘z ichiga olishi lozimligi belgilangan.

Bank daromad va xarajatlarni tan olishda, shuningdek, «ehtiyotkorlik», «hisobot davrida daromadlar bilan xarajatlarning muvofiqligi», «ahamiyatlilik», tamoyillaridan ham foydalanish kerak. YA’ni, qarorlar qabul qilishda ehtiyotkorlik qoidasiga rioya qilish aktivlar va daromad qaytadan baholanmasligi, majburiyatlar yoki xarajatlar esa yetarlicha baholanmasligiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida noaniqlik sharoitida baho chiqarish uchun zarurdir. Hisobot davrida olingan daromadlar bilan qilingan xarajatlarning muvofiqligi shuni anglatadiki, mazkur davrda ushbu hisobot davridagi daromadlarni olishga asos bo‘lgan xarajatlarga aks ettiriladi. Agar, daromad bilan xarajatlar o‘rtasida bevosita bog‘liqlikni o‘rnatish qiyin bo‘lsa, xarajatlardan biron–bir taqsimlash tizimiga muvofiq bir nechta hisobot davrlari o‘rtasida taqsimlanadi. Masalan, bir necha yilga taqsimlanadigan amortizatsiya xarajatlariga. Daromad va xarajatlarni hisobga olishda ahamiyatlilik tamoyili moliyaviy axborotdan foydalanuvchilarning qarorlar qabul qilish jarayonida ularning ehtiyojlarini qondirish va ularga operatsion, moliyaviy va xo‘jalik faoliyatiga baho berishda ko‘maklashish uchun zarur bo‘lishi kerak. Shuningdek, arzimagan xarajat elementini to‘g‘ri hisoblash

imkoniyati yo‘qligi daromadni tan olmaslik sabablari bo‘lmasligi lozim.

Xozirgi kunda bank daromadlari va xarajatlarini buxgalteriya hisobida tan olish masalasi o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Bank daromadlari va xarajatlarini hisobga olishda tan olish mezonlarining bajarilishi va buxgalteriya hisobining izchillik, ishonchlilik, aniqlik, to‘liqlik va o‘z vaqtidalilik tamoyillari bilan birga «ehtiyotkorlik», «hisobot davrida daromadlar bilan xarajatlarning muvofiqligi», «ahamiyatlilik» tamoyillaridan foydalansa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

## **4-mavzu. Banklarda soliqlar va yig‘malar hisobi**

**1-topshiriq. Quyidagi savollarni o‘rganib chiqing va qisqa matnda javob yozing.**

1. Bankning budjet va budjetdan tashqari to‘lovlari turlari va ularni hisoblash.
2. Banklarda daromad solig‘i, qo‘shimcha qiymat solig‘i, ekologiya solig‘i, mol-mulk solig‘ini hisoblash va hisobini yuritish tartibi.



3. Budjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha operatsiyalarni bank buxgalteriya hisobida aks ettirilishi.

**2-topshiriq.** Quyidagi matn asosida banklarni soliqqa tortishning meyoriy-huquqiy asoslari haqida ma'lumotlarni o'zlashtiring:

Respublikamizda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish hamda davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lash bilan bog'liq munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlar soliq kodeksi asosida tartibga solinadi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar soliq kodeksi bilan belgilanadi, o'zgartiriladi yoki bekor qilinadi. Soliq solish masalalariga oid normativ-huquqiy hujjatlar soliq kodeksi qoidalariga muvofiq bo'lishi kerak.

Soliq solish masalalariga oid normativ-huquqiy hujjat ayrim hollarda soliq Kodeksiga muvofiq emas deb topiladi, jumladan quyidagi holatlarda:

- soliq kodeksiga muvofiq bunday hujjatni qabul qilish huquqiga ega bo'lmagan organ tomonidan qabul qilingan bo'lsa yoki normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishning belgilangan tartibi buzilgan holda qabul qilingan bo'lsa;

- soliq munosabatlari subyektlarining huquqlarini bekor qilsa yoki cheklasa, soliq munosabatlari subyektlarining soliq kodeksida belgilangan majburiyatlarining mazmunini, ular harakatlarining asoslari, shartlari, ketma-ketligi yoki tartibini o'zgartirsa;

- soliq kodeks bilan taqiqlangan harakatlarga ruxsat bersa yoki yo'l qo'ysa;

- soliq kodeksida belgilangan tushunchalar mazmunini o'zgartirgan yoki bu tushunchalar soliq kodeksida qo'llanilganidan boshqacha ma'noda qo'llanilgan bo'lsa.

Soliq kodeksiga muvofiq bo'lmagan normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan organ yoki uning yuqori turuvchi organlari mazkur hujjatni bekor qilishga yoki unga zarur o'zgartishlar kiritishga haqli. Bu organlar soliq kodeksiga muvofiq bo'lmagan normativ-huquqiy hujjatni bekor qilishni yoki unga zarur o'zgartishlar kiritishni rad etgan taqdirda, bu hujjat sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Soliq qonunchiliga ko'ra soliq solish soliq majburiyatlari yuzaga kelgan paytda amalda bo'lgan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Ayrim istisno hollardan tashqari holatlarda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari orqaga qaytish kuchiga ega emas va ular amalga kiritilganidan keyin yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan qo'llaniladi. YA'ni, soliq to'g'risidagi qonunhujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni bekor qiladigan yoki yengillashtiradigan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari orqaga qaytish kuchiga ega hisoblanadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni bekor qilish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalarini kamaytirish, soliq to'lovchilarning majburiyatlarini bekor qilishni yoki ularning ahvolini boshqacha tarzda

yengillashtirishni nazarda tutuvchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari orqaga qaytish kuchiga ega bo'lishi mumkin.

Yangi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar belgilanishini, imtiyozlar to'liq yoki qisman bekor qilinishini, soliq solinadigan baza oshirilishini nazarda tutuvchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari ular rasmiy e'lon qilingan paytdan e'tiboran kamida uch oy o'tgach, amalga kiritiladi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari o'zgartirilishini nazarda tutuvchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari, agar ularda kechroq muddatko'rsatilmagan bo'lsa, ular rasmiy e'lon qilingan oydan keyingioyning birinchi kunidan e'tiboran amalga kiritiladi.

Tijorat banklari soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilgan yuridik shaxslar hisoblanib, o'z faoliyati bo'yicha soliq to'lovchi hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish majburiyati yuklatilganligi bois, soliq agentlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarga quyidagilar kiradi:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

- mol-

- mulk
- solig'i;

- yer
- solig'i;

- davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy to'lovlar:yagona ijtimoiy to'lov.

Tijorat banklari tomonidan har bir to'lanadigan soliq turlaribo'yicha soliq hisoboti topshiriladi. Soliq hisoboti soliq to'lovchining soliq va boshqa majburiy to'lovning har bir turi bo'yicha yoki to'langan daromadlar bo'yicha hisob-kitoblar hamda soliq deklaratsiyalarini, shuningdek hisob-kitoblarga va soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o'z ichiga oladigan hujjati bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda tuziladi. Soliq hisoboti qog'ozda va (yoki) elektron hujjatga doir talablarga rioya etilgan holda elektron hujjat tarzida tuziladi.

Tijorat banklari uchun foyda solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza «Foyda va zararlar to'g'risida»gi hisobotga muvofiq jami daromadlar bilan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida, Soliq kodeksining 147-moddasida belgilangan chegirilmaydigan xarajatlarni qayta qo'shgan holda, Soliq

kodeksning 158-moddasi ikkinchi qismida, boshqa qonunlarda va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida, alohida hollarda esa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan imtiyozlar hamda Soliq Kodeksining 159-moddasiga muvofiq soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi summolari inobatga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi. Soliq solish maqsadida asosiy vositalar obyektlari va nomoddiy aktivlarning chiqib ketishida mazkur asosiy vositalar obyektlari va nomoddiy aktivlarning qo‘shimcha baholash summasining ushbu asosiy vositalar obyektlari va nomoddiy aktivlarning ilgarigi arzonlashtirishlar summasidan oshgan qismi taqsimlanmagan foyda tarkibida hisobga olinadi va soliq solish bazasiga kiritiladi.

Tijorat banklari tomonidan to‘laydigan foyda solig‘i, soliq solinadigan bazaga nisbatan Soliq kodeksining 159-1-moddasida belgilangan stavkada amalga oshiriladi. Banklar tomonidan foyda solig‘ining hisob-kitobi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdimetiladi. Banklar foyda solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovlarning summasini aniqlash uchun joriy hisobot davri (yilning choragi) birinchi oyining 10-kunigacha davlat soliq xizmati organiga joriy hisobot davri uchun taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining belgilangan stavkasidan kelib chiqib hisoblangan foyda solig‘ining summasi haqida ma‘lumotnoma taqdim etadilar.

Foyda solig‘i quyidagi formula yordamida hisoblanadi:  $F_s = ((J_d - J_x) + QK_x \pm KCh_x - I_m) \times S_s$

$F_s$  – foyda solig‘i;  $J_d$  – jami daromadlar;  $J_x$  – jami xarajatlar;  $QK_x$  – Soliq solinadigan bazaga qayta kiritiladigan xarajatlar;  $KCh_x$  – hisobot davrining soliq solinadigan foydasidan kelgusida chegiriladigan xarajatlar;  $I_i$  – Imtiyozlar,  $S_s$  – amaldagi soliq stavkasi(foizda).

Foyda solig‘ini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazaga qayta kiritiladigan xarajatlar (chegirilmaydigan xarajatlar) quyidagilar:

moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi normalaridagi ortiqcha yo‘qotishlar va buzilishlar;

umumiy ovqatlanish korxonalariga yoki boshqa chet tashkilotlarga joylarni bepul berish xarajatlari, ushbu korxonalar va tashkilotlar uchun kommunal xizmatlar ko‘rsatish qiymatini to‘lash;

bankning Soliq kodeksning 177-moddasida nazarda tutilgan, jismoniy shaxsning moddiy naf tarzidagi daromadlari hisoblanadigan xarajatlari;

dala ta‘minoti, xizmat maqsadida xodimning shaxsiy avtotransportdan foydalanganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha

to'langan to'lovlar;

pensiyalarga qo'shimcha va ustamalar;

xodimlarga to'lanadigan moddiy yordam, bundan ushbu Kodeksning 143 va 145-moddalarida nazarda tutilgan moddiy yordam mustasno (*xodim oila a'zosining vafoti yoki xodimning vafoti munosabati bilan oila a'zolariga beriladigan va xodimning mehnatda mayib bo'lishi yoki uning sog'lig'iga boshqacha tarzda shikast yetkazilishi munosabati bilan beriladigan **moddiy yordam bundan mustasno***; bola tug'ilishi, xodim yoki uning farzandlari nikohdan o'tishi

munosabati bilan beriladigan va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini berish yoki ularni sotib olish uchun mablag'lar berish tarzidagi moddiy yordamlar qayta qo'shiladi);

badallar, homiylik va xayriya yordami tarzidagi mablag'lar; qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiq holda

atrof muhitni ifloslantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik uchun kompensatsiya to'lovlari;

kredit shartnomasida muddatli qarzlarni uchun nazarda tutilgan stavkalardan ortiqcha bo'lgan, to'lov muddati o'tgan hamda uzaytirilgan kreditlar (zayomlar) bo'yicha foizlar;

loyihalardagi va qurilish-montaj ishlaridagi kamchiliklarni, shuningdek obyekt yonidagi omborgacha tashib keltirilishi chog'ida yuz bergan buzilishlar va deformatsiyalarni bartaraf etish bo'yicha xarajatlar, korroziyaga qarshi muhofazadagi nuqsonlar tufayli taftish o'tkazish (asbob-uskunalarni qismlarga ajratish) xarajatlari, mazkur xarajatlarni kamchiliklar, buzilishlar yoki zararlar uchun javobgar bo'lgan mahsulot yetkazib beruvchi yoki boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar hisobidan o'rnini qoplash mumkin bo'lmagan miqdordagi boshqa shunga o'xshash xarajatlar;

aybdorlari aniqlanmagan o'g'irliklar va kamomadlardan yoki zarur summalarning o'rnini aybdor taraf hisobidan qoplash mumkin bo'lmaganda ko'rilgan zararlar;

soliq to'lovchining asosiy vositalari chiqib ketishidan (balansdan chiqarilishidan) ko'rilgan (buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan) zararlar, bundan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida mol-mulkni bepul topshirishdan ko'rilgan zararlar, shuningdek telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlarizimining texnik vositalarini bepul topshirishdan hamda ulardan bepul foydalanish va ularga xizmat ko'rsatishdan ko'rilgan zararlar va 3 yildan ortiq foydalanilgan asosiy vositalarni realizatsiya qilishdan ko'rilgan zararlar mustasno;

xo'jalik shartnomalari shartlarini va qonun hujjatlarini buzganlik uchun

to'langan yoki tan olingan jarimalar, penya hamdaboshqa turdagi sanksiyalar;

O'zbekiston Respublikasi norezidenti va boshqa shaxslar uchun to'langan soliqlar;

tekshiruvlar natijalariga ko'ra qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;

soliq to'lovchining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi bilan bog'liq bo'lmagan tadbirlar (sog'liqni saqlash, sport vama'daniyat tadbirlari, dam olishni tashkil etish va hokazo) uchun xarajatlar;

kasaba uyushmasi qo'mitalariga yordam ko'rsatish;

mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan ishlarni(xizmatlarni) bajarish uchun xarajatlar (shaharlar va shaharchalarni obodonlashtirish ishlari, qishloq xo'jaligiga yordam ko'rsatish va boshqa turdagi ishlar).

Bankning hisobot davrining soliq solinadigan foydasidan kelgusida chegiriladigan xarajatlari mavjud bo'lib, ushbu xarajatlar ular yuzaga kelgan paytda, joriy hisobot davrida soliq solinadigan foydani hisoblab chiqarishda chegirilmaydi, ular keyingi davrlarda, soliq to'lovchining hisob siyosati bilan belgilangan, lekin uch yildan ko'p bo'lmagan muddat ichidachegirilishi lozim. Bunday xarajatlarga quyidagilar kiradi:

yangi filiallarni faoliyatini boshlashga tayyorlash bilan bog'liq xarajatlar:

filialni belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazish uchun zarur bo'lgan davlat bojlari va boshqa to'lov turlarini to'lash;

ro'yxatdan o'tkazishga qadar filial xodimlari mehnatiga haq to'lash;

filial faoliyati boshlanishga tayyorlanish ustidan texnik nazorat qilish guruhini tutib turish;

filial faoliyatini boshlash uchun zarur bo'lgan kompyuter uskunalari va texnikani montaj qilish xarajatlari;

filialni aloqa vositalari va telekommunikatsiyalarga ulash xarajatlari;

yangi ochiladigan filialda ishlash uchun kadrlarni tayyorlash xarajatlari va boshqa shu kabi xarajatlar.

Barcha turdagi asbob-uskunalar va texnik qurilmalarni, ularning o'rnatilish sifatini tekshirib ko'rish maqsadida kompleks sinab kurish (ishlab turgan holatida) xarajatlari; ishchi kuchlari qabul qilish va yangi ishga tushirilgan filialda ishlash uchun kadrlar tayyorlash bilan bog'liq xarajatlar;

asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning jadallashtirilgan usulda hisoblangan amortizatsiya summasi bilan Soliq kodeksning 144-moddasiga muvofiq belgilangan normalar bo'yicha hisoblangan amortizatsiya summasi o'rtasidagi farq. Bankning soliq solinadigan

foydasini quyidagi summaga kamaytiriladi:

2) ekologiya, sog'lomlashtirish va hayriya jamg'armalariga, madaniyat, sog'liqni saqlash, mehnat organlari, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, ta'lim muassasalariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga beriladigan badallar, homiylik va hayriya tariqasidagi mablag'lar summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning ikki foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda; yosh oilalar toifasiga kiruvchi xodimlarga ipoteka kreditlari badallari to'lashga va (yoki) mulk sifatida uy-joy olishga tekin yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga, biroq soliq solinadigan bazaning 10 foizidan oshmagan miqdorda; o'tgan soliq davrlarida ko'rilgan zararlar summasiga joriy soliq davridagi soliq solinadigan foydani kamaytirishga haqli, lekin soliq solinadigan foydaning 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda. Soliq to'lovchi ko'rilgan zararlarni ushbu zarar ko'rilgan soliq davridan keyingi besh yil ichida amalga oshirishga haqlidir; Bank tomonidan bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasiga xomiylik yordami tarzida o'tkazgan mablag'lari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 iyuldagi PQ-1166-sonli Qaroriga muvofiq, kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab foyda solig'i tabaqalashtirilgan stavkalar bo'yicha to'lanadi (PQ-2344-sonli qarorga asosan 2020 yilga qadar):

<b>Kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushi</b>	<b>Tijorat banklaridagi foyda solig'ining imtiyozli stavkalari (amaldagn stavkadan %da)</b>
35%dan40% gacha	80%
40%odan 50% gacha	75%
50%dan yukori	70%

*Izoh: Uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashga - uch yildan kam bo'lmagan muddatga beriladigan investitsiyaviy kreditlar va lizing xizmatlari, shu jumladan, banklar tomonidan olinadigan ishlab chiqarish*

korxonalarini negizida tashkil etiladigan kompaniyalar aktivlariga banklar tomonidan yo'naltiriladigan mablag'lar kiradi. O'stirimaslik maqomini olgan kredit bo'yicha hisoblab yozilgan foizlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibga muvofiq daromadlar hisobvarag'idan hisobdan chiqariladi.

3-topshiriq. Tijorat banklari tomonidan to'lanadigan soliqlar hisobini o'zlashtiring.

Tijorat banklari foyda solig'i hisob-kitobini davlat soliq xizmati organlariga qonunchilikda belgilangan shakl bo'yicha taqdim etadilar. Hisob-kitobga 0204IS-son shakldagi "Foyda va zararlarga o'g'risidagi hisobot" ilova qilinishi lozim.

Foyda solig‘i har oyda xarajatlarga o‘tkaziladi. Foyda solig‘ini hisoblashda quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi amalga oshiriladi:

*Debet 56902 "Daromad solig‘ini baholash";*

*Kredit 22502 "Hisoblangan foyda solig‘i - to‘lanadigan".*

Hisobot choragi tugagandan keyin, 22502-hisobvaraqdagi foyda solig‘ining haqiqiy summasi hisobidan hisobot choragi mobaynida 19931-hisobvaraqdan to‘lab kelingan foyda solig‘i taxminiy summasi qoplanib, o‘rtadagi ijobiy farq (foyda solig‘i haqiqiy summasi taxmin qilingandan ortiqcha bo‘lganda) byudjetga to‘lab beriladi, salbiy farq (foyda solig‘i haqiqiy summasi taxmin qilingandan kam bo‘lganda) esa, 19931-hisobvaraqda foyda solig‘i bo‘yicha ortiqcha to‘lov summasi sifatida qoladi. Ushbu ortiqcha to‘lov summasini keyingi choraklarda foyda solig‘i va boshqa soliqlar bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summalari hisobiga hisobga olish yoki qaytarish bo‘yicha choralar ko‘rilishi lozim.

Foyda solig‘ining haqiqiy summasi hisobidan hisobot choragi mobaynida to‘lab kelingan foyda solig‘i taxminiy summasi qoplanganda, quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi amalga oshiriladi:

*Debet 22502 "Hisoblangan foyda solig‘i - to‘lanadigan"; Kredit 19931 "Muddati uzaytirilgan soliqlar".*

Foyda solig‘ining haqiqiy summasi bilan taxmin qilingan summasi o‘rtasidagi ijobiy farq summasi byudjetga to‘langanda:

*Debet 22502 "Hisoblangan foyda solig‘i - to‘lanadigan";*

*Kredit 23402-"Respublika byudjetining mablag‘lari – yagona g‘azna hisobvarag‘i".*

Taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasi hisobot davri uchun byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasiga nisbatan 10 foizdan ko‘proq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to‘lovlarni yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining haqiqiy summasidan kelib chiqib penya hisoblagan holda qayta hisoblaydi.

**Uyga vazifa.** “Tijorat banklarida soliqlar va yig‘imlar hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari” mavzusida referat tayyorlash va mashg‘ulot jarayonida taqdimot qilish.

## **5-mavzu. Banklarda balansdan tashqari operatsiyalar hisobi**

### **1-topshiriq. Quyidagi savollarga qisqa matnda javob yozing:**

1. Banklarda balansdan tashqari operatsiyalar hisobining mazmuni nimalardan iborat?
2. Bank kafolatlari va ularning hisobi qanday tashkil etiladi?
3. Muddatli bitimlar va ularning hisobining huquqiy-uslubiy asoslari nimalardan iborat?
4. Banklarda qimmatliklarni saqlash xizmatlari hisobi qanday tashkil etiladi?
5. Trast operatsiyalari hisobi haqida nimalarni bilasiz?

### **2-topshiriq. Quyida keltirilgan balansdan tashqari hisobvaraqlar bo'yicha amaliy misolla keltiring:**

- to'lovga yaroqsiz va ekspertizaga qabul qilingan banknot va tangalar;
- hujjatli qimmatli qog'ozlar blankalari va hujjatsiz qimmatli qog'ozlar;
- bankning plastik kartalari, terminallari, bankomatlari va infokioskalari;
- savdoga oid moliyalashlar; aktivlar bo'yicha foizlar va vositachilik haqlari;
- bankning kredit va lizing majburiyatlari;
- qarzdorlarning kredit va lizing majburiyatlari;
- hosilaviy instrumentlar bo'yicha transaksiyalar;
- qimmatli qog'ozlar bo'yicha muddatli bitimlar;
- saqlanayotgan qimmatli qog'ozlar va boshqa qimmatbaho buyumlar;
- garov sifatidagi qimmatli qog'ozlar, mulklar va mulkiy huquq(talab)lar.



**3-topshiriq. Quyida keltirilgan balansdan tashqari hisobvaraqlar bo'yicha buxgalteriya provodkalarini yozing:**

- 90100 To'lovga yaroqsiz va ekspertizaga qabul qilingan banknot va tangalar;
- 90300 Hujjatli qimmatli qog'ozlar blankalari va hujjatsiz qimmatli qog'ozlar;
- 90400 Bankning plastik kartalari, terminallari, bankomatlari va infokioskalari;
- 90900 Savdoga oid moliyalashlar;
- 91500 Aktivlar bo'yicha foizlar va vositachilik haqlari;
- 91800 Bankning kredit va lizing majburiyatlari;
- 91900 Qarzdorlarning kredit va lizing majburiyatlari;
- 92700 Hosilaviy instrumentlar bo'yicha transaksiyalar;
- 92800 Qimmatli qog'ozlar bo'yicha muddatli bitimlar;
- 93600 Saqlanayotgan qimmatli qog'ozlar va boshqa qimmatbaho buyumlar;
- 94500 Garov sifatidagi qimmatli qog'ozlar, mulklar va mulkiy huquq(talab)lar;
- 95400 Boshqa ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari;
- 96300 Ko'zda tutilmagan holatlar kontr-hisobvaraqlari.

**4-topshiriq. Quyidagi balansdan tashqari hisobvaraqlar bo'yicha keltirilgan matnni o'qing va tushirib qoldirilgan so'zlarni topib joyiga joylashtiring. Topshiriqni uyda yakunlash mumkin:**

Ekspertizaga qabul qilingan pullar ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari orderlari asosida 90141 "Ekspertizaga qabul qilingan banknot va tangalar" hisobvarag'iga o'z \_\_\_\_\_ qiymati bo'yicha kirim qilinadi. Inkassatsiya qilingan pul tushumini qayta sanash vaqtida yoki taftish, tekshiruv va boshqa hollarda ularning to'lovga yaroqliligiga shubha tug'diradigan pul va tangalar ham aynan shu \_\_\_\_\_ kirim qilinadi.

Debet 90141 - Ekspertizaga qabul qilingan banknot va tangalar

Kredit 96303 — Banknot, tanga va boshqa qiymatliklar xarakati bo'yicha kontr-hisobvaraq.

Debet 90143 - Ekspertizaga qabul qilingan yo'ldagi banknot va tangalar

Kredit 96303 — Banknot, tanga va boshqa qiymatliklar xarakati bo'yicha kontr-hisobvaraq.

To'lov hujjatlari ko'zda tutilmagan hisobvaraqlarda to'lov muddatini kutayotganda yoki o'z muddatida to'lanmaganda hisobga olinadi. Buning uchun 2 ta kartoteka ochilgan bo'lib, ularning biri kartoteka 1 ya'ni To'lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari kartotekasi, ikkinchisi kartoteka 2 Muddatida to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari kartotekasidir.

- 90962 - To'lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari
- 90963 - Muddatida to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari
- 96319 - To'lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari bo'yichakontr-hisobvaraq.
- 96321 - Muddatida to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari bo'yicha kontr-hisobvaraqlari hisoblanadi

## 6-Mavzu. Bank buxgalteriya hisobotlari

### 1-topshiriq. Quyidagi savollarga qisqa matnda javob yozing:

1. Bank buxgalteriya hisobotlarining ahamiyati va turlari.
2. Joriy buxgalteriya hisobotining mazmuni.
3. Yillik hisobotning mazmuni, uni tuzish va tasdiqlash tartibi.
4. Bank kunlik balansi mohiyati va tuzish tartibi.
5. Tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari.
6. Yillik bank hisobotlarini matbuotda e'lon qilish.

### 2-topshiriq. Bank balansi va uni tuzish tartibini berilgan ma'lumotlar asosida o'zlashtiring:

Tijorat banklarining buxgalteriya balansi bu bankning moliyaviy va moddiy mablag'larining pul ifodasida ma'lum bir sanadagi xolati va xarakati to'g'risidagi ma'lumotni o'zida aks ettiruvchi maxsus jadvaldan iborat.

Balans yordamida bank faoliyati tahlil qilinadi va nazorat olib boriladi. Unda bankning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'larining holati ifodalanadi.

Banklarda turli mulkchilik shakllariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlardan farqli ravishda balans xar bir ish kuni bo'yicha tuziladi. Bundan tashqari oylik, choraklik va yillik hisobot balanslari ham tuziladi.

Quyidagi buxgalteriya balansi qatorlari bo'yicha hamda umumiy yakun bo'yicha ko'rsatkichlarni jamlang va "arifmetik tekshiruv" usuli yordamida tekshiring. Natijalarga tahliliy xulosa yozing.

"O'z sanoatqurilishbank" ATB balansi tarkibi (mlrd so'mda)

№	AKTIVLAR	01.01.2019	01.07.2019
1	Kassadagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari	243,50	272,49
2	Markaziy bankdan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar	562,56	346,07
3	Boshqa banklardan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar, Sof		
3.1.	Boshqa banklardan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar, Yalpi	641,71	1 098,35

3.2.	Minus: Ehtimoliy yo'qotishlar uchun zahiralar	0,00	0,00
4	Sotish uchun mo'ljallangan vositalar hisobvaraqlari, sof	0,00	0,00
4.1.	Sotish uchun mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar, Yalpi	0,00	0,00
4.2.	Minus: Ehtimoliy yo'qotishlar uchun zahiralar	0,00	0,00
5	Qimmatbaho metallar, tangalar, toshlar, sof	0,00	0,00
5.1.	Qimmatbaho metallar, tangalar, toshlar, yalpi	0,00	0,00
5.2.	Minus: ehtimoliy yo'qotishlar uchun zahiralar	0,00	0,00
6	Investitsiyalar, sof		
6.1.	Investitsiyalar, yalpi	26,16	153,38
6.2.	Minus: ehtimoliy yo'qotishlar uchun zahiralar	23,73	22,96
7	REPO bitimlari bo'yicha olingan qimmatli qog'ozlar, Sof	0,00	0,00
7.1.	REPO bitimlari bo'yicha olingan qimmatli qog'ozlar, yalpi	0,00	0,00
7.2.	ehtimoliy yo'qotishlar uchun zahiralar	0,00	0,00
8	Kreditlar va lizing operatsiyalari, sof		
8.1.	Yalpi kreditlar va lizing operatsiyalari, yalpi	14 571,98	16 554,08
8.2.	Minus: ehtimoliy yo'qotishlar uchun zahiralar	476,95	606,91
9	Xarid qilingan veksellar, sof	0,00	0,00
9.1.	Xarid qilingan veksellar, yalpi	0,00	0,00
9.2.	Minus: ehtimoliy yo'qotishlar uchun zahiralar	0,00	0,00
10	Mijozlarning moliyaviy vositalar bo'yicha majburiyatlari, sof	0,00	0,00
10.1.	Mijozlarning moliyaviy vositalar bo'yicha majburiyatlari, yalpi	0,00	0,00
10.2.	Minus: ehtimoliy yo'qotishlar uchun zahiralar	0,00	0,00
11	Asosiy vositalar, sof	101,10	176,42
12	Hisoblangan foizlar va foizsiz daromadlar, sof		
12.1.	Hisoblangan foizlar, yalpi	553,86	440,96
12.2.	Hisoblangan foizsiz daromad, yalpi	3,92	3,27
12.2.1.	Minus: ehtimoliy yo'qotishlar uchun zahiralar	0,01	0,60
13	Bankning boshqa xususiy mulki, sof		
13.1.	Kredit va lizing bo'yicha undirilgan mulk, yalpi	0,68	8,14
13.2.	Bankning boshqa mulklari, yalpi	13,12	12,46
13.3.	Minus: Yig'ilgan amortizatsiya va yo'qotishlarga qarshi zahira	2,75	7,15
14	Boshqa aktivlar, sof	69,43	228,87
14.1.	Boshqa aktivlar, yalpi	70,65	235,55
14.2.	Minus: ehtimoliy yo'qotishlar uchun zahiralar	1,22	6,68
14.3.	Valyuta va valyuta pozitsiyasi savdolari	0,00	0,00
15.	<b>Jami aktivlar</b>		
	<b>MAJBURIYATLAR</b>	01.01.2019	01.07.2019
16.	Talab qilib olinguncha depozitlar	1 858,11	1 710,87
17.	Muddatli depozitlar	722,17	1 636,32
18.	MBga to'lanishi lozim	0,00	0,00

19.	Boshqa banklarga to'lanishi lozim	361,29	484,16
20.	REPO bitimlarida sotilgan qimmatli qog'ozlar	0,00	0,00
21.	Kreditlar va lizing operatsiyalari bo'yicha to'lovlar	11 142,72	12 373,33
22.	Bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	5,34	0,00
23.	Subordinatsiyalangan qarz majburiyatlari	16,58	175,50
24.	To'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar	434,16	343,70
25.	To'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan soliqlar	18,09	3,37
26.	Kliring transaksiyalari	13,29	9,68
27.	Boshqa majburiyatlar	192,03	138,63
28.	Majburiyatlar, jami		
	<b>XUSUSIY KAPITAL</b>		
29.	Ustav kapitali		
29.1.	Oddiy aksiyalar	998,22	1 152,52
29.2.	Imtiyozli aksiyalar	3,75	3,75
30.	Qo'shilgan kapital	0,37	0,37
31.	Zaxira kapitali		
31.1.	Umumiy zaxira fondi	335,44	334,91
31.2.	Standart aktivlar uchun yaratilgan zaxiralar	25,35	25,31
31.3.	Devalvatsiya zaxirasi	0,00	0,00
31.4.	Boshqa zaxiralar va fondlar	26,92	30,71
32.	Taqsimlanmagan foyda	130,75	203,91
32.1.	shundan joriy yilning sof foydasi (zarari)	126,47	72,21
33.	<b>Jami xususiy kapital</b>		
34.	<b>Jami majburiyatlar va xususiy kapital</b>		

**Uyga vazifa.** Tijorat banklarida buxgalteriya hisobotlarining tarkibi va tasnifi bo'yicha taqdimot materiallarini tayyorlang va amaliy mashg'ulotda taqdimot qiling (kichik guruhlarda ishlash mumkin, a'zolar soni 3-5 nafar)

## **7-mavzu. Tijorat banklari faoliyatini tahlilini tashkil qilish**

### **Seminar rejasi:**

1. Tijorat banklari faoliyatini tahlili qilish zaruriyati, predmeti va metodlari.
2. Tijorat banklari faoliyatini tahlil qilish va uning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Tijorat banklari faoliyatini tahlili qilishda bank balansining ahamiyati va uning tahlili.
4. Bank faoliyati tahlilining maqsadi va vazifalari.

**1-topshiriq.** Berilgan savollar asosida “Qaytar aloqa” usulini qo‘llagan holda javob qaytaring.

1. Bank aktiv, passiv operatsiyalari tahlili qanday tashkil etiladi?
2. Bank faoliyati tahlilida qaysi usullardan foydalaniladi?
3. Bank faoliyati tahlili natijalari qanday umumlashtiriladi va rasmiylashtiriladi?

**2-topshiriq.** Berilgan matnni o‘qing va “Tijorat banklarida iqtisodiy tahlilni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari” mavzusida 10 minutlik “Esse” yozing.

Har qanday jarayonning keyingi taqdiri uni har tomonlama chuqur tahlil etilishiga asoslanadi. Ayniqsa iqtisodiy jarayonlarning takomillashuvi va rivojlanishini iqtisodiy tahlilsiz tasavvur etish mumkin emas. Bozor iqtisodiyoti davrida banklar Prezidentimiz ta’kidlab o‘tganlaridek iqtisodiyotning qon tomirlari hisoblanar ekan, ular faoliyatini tartibga solish, muvofiqlashtirish muhim masalalardan bir bo‘lib qolaveradi. Chunki, banklar iqtisodiyotda kredit munosabatlari va hisob-kitoblarda vositachi vazifasini bajarar ekan, barcha iqtisodiy sub’ektlarning barqaror faoliyat yuritishi bank tizimining barqarorligi bilan chambarchas ravishda bog‘liq bo‘lib qoladi. Banklar ish yurituvchilar faoliyatining uzluksizligini ta’minlash maqsadida ularni doimiy ravishda kredit mablag‘lari bilan ta’minlab turadilar. Bundan tashqari barcha iqtisodiy sub’ektlar o‘rtasidagi hisob-kitoblar banklar orqali amalga oshiriladi. Shunday ekan, iqtisodiy munosabatlarning barqarorligi va samaradorligini bank faoliyatisiz, uning barqaror rivojisiz amalga oshirish mumkin emas. Banklar barqaror va samarali faoliyat yuritmasa uning mijozlari o‘z faoliyatini uzluksizligini ta’minlashning iloji bo‘lmay qoladi. Mijozlar faoliyati ko‘p jihatdan banklarning likvidliligi, to‘lov qobiliyati va samarali faoliyat yuritishiga bog‘liqdir. Yuqorida bildirilgan fikrlarning barchasi banklar faoliyati bilan butun iqtisodiy jarayonlarning uzluksiz ravishda bog‘liqligini bildiradi.

Shunday ekan, banklar faoliyatini izchil, chuqur va ilmiy asoslangan ravishda uzluksiz tahlil etib borish, ular faoliyatining barqarorligini ta’minlash muhim iqtisodiy masalalardan bir bo‘lib qolaveradi va ulkan ahamiyat kasb etadi. Bank

faoliyatini tahlil etish uchun bank faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha iqtisodiy jarayonlarni har tomonlama chuqur his etmoq, anglamoq zarur bo'ladi. Buning uchun esa eng avallo bankning mohiyati, bajaradigan vazifalari, ushbu vazifalarni bajarish asoslari, usullari, xullas, butun bank faoliyatiga tegishli jarayonlarni his etmoq lozim. Bank faoliyatini yuritish uchun lozim bo'lgan mablag'lar va ularning manbalari, o'z mablag'lari hamda majburiyatlari tarkibi, ular o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash masalalari, ushbu mablag'larni samarali yo'naltirish, bankning likvidliligi, to'lov qobiliyatini ta'minlash asoslari kabilar chuqur o'rganilmog'i zarur. Yuqorida bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda, Bank faoliyati tahlili fanining predmeti, bank faoliyatini o'zida aks ettiruvchi iqtisodiy jarayonlarni uzsluksiz ravishda o'rganishdan iboratdir. Bank faoliyati tahlili fani banklarda muomaladagi bo'sh mablag'larni o'ziga jalb etish, o'z mablag'larini to'plash va boshqarish, jamlangan passivlarning aktiv operatsiyalarga joylashtirish, aktivlarni boshqarish daromad va xarajatlarni shakllantirish hamda mijozlarga bank xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy jarayonlarni o'rganadi. Har qanday tahlil kabi, banklar faoliyati tahlili jarayonida birinchidan haqiqiy holat o'rganiladi, ikkinchidan haqiqiy holat normativ ko'rsatkichlar bilan taqqoslanadi uchinchidan olingan natijalarga ta'sir etuvchi omillar va ular ta'sirining bank faoliyatiga ta'siri tahlil qilinib faoliyatni yanada takomillashtirish yuzasidan bank boshqaruviga takliflar tayyorlanadi. Shunday ekan, Bank Boshqaruvi tomonidan bank faoliyati samaradorligini oshirish uchun qabul qilinadigan qarorlari albatta bank faoliyati tahlil natijalariga asoslanadi. Qabul qilingan qarorlarning samarasi faoliyat tahlili natijalarining nechog'lik to'g'riligiga proporsional ravishda bog'liqdir. Bank faoliyati tahlilining asoslari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi: 83 - birinchidan, bank balansi ma'lumotlari; - ikkinchidan bank daromad va xarajatlari (moliyaviy natijalar) balansi; - uchinchidan bank buxgalteriyasi analitik va sintetik hisob raqamlari ma'lumotlari. Bank faoliyatining o'ziga xos xususiyatlardan bir bo'lib, banklarda kunlik balans hisobotlari tuziladi. Har bir ish kuni oxirida, bankning har bir filiali tomonidan balans tuziladi va u Respublika Boshqaruvi tomonidan umumlashtiriladi. Bu holat bank faoliyatini tezkor ravishda tahlil qilib

borish imkoniyatini yaratadi. Bankning daromadlari va xarajatlari balans ma'lumotlariga asosan uning daromadlari manbalari, miqdori, xarajatlarining turlari va hajmi hamda faoliyat samaradorligi tahlil qilinadi. Bank faoliyatini operativ (tezkor) tahlil qilishda analitik va sintetik hisob raqamlar oboroti va qoldig'idan foydalanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday faoliyat yurituvchi korxonada faoliyati tahlilidan asosiy maqsad faoliyat samaradorligi oshirishdan iboratdir. Bank faoliyati tahlilini amalga oshirishdan ham bosh maqsad bo'lib, bank faoliyati samaradorligini oshirishga erishishdan iboratdir. Bank faoliyati natijasida olinadigan sof foydaning miqdori oshishini ta'minlash, omonatchilar va kreditorlarning ishonchini qozonish va bank aksionerlariga to'lanadigan dividendlar miqdorini oshirib borish uchun bank faoliyati domiy va uzluksiz ravishda tahlil qilib borilishi lozim. Bosh maqsadga erishish uchun bank faoliyatining barcha jihatlari uzluksiz ravishda tahlil etilishi, uning natijalari to'g'ri va aniq talqin qilingan holda Bank Boshqaruviga xulosa chiqarish va qaror qabul qilish uchun muntazam ravishda taqdim etib borilmog'i lozim. Bank strategiyasini belgilash, Bank Boshqaruvi, Kuzatuv kengashi va Aksionerlarning umumiy yig'ilishi qarorlari ham bank faoliyati tahliliga asoslanadi va ushbu qabul qilingan qarorlar samaradorligini belgilab beradi

**Uyga vazifa.** Banklarda tahlil ishlarini tashkil etishning nazariy va uslubiy asoslari yuzasidan referat ko'rishida mustaqil ish tayyorlash.

## **8-Mavzu. Bank kapitali va uni boshqarishni tahlil qilish**

### **O'rganiladigan savollar:**

1. Bank kapitali va uning tarkibi.
2. Bank kapitali holati tahlil qilish ko'rsatkichlari va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar.
3. Tijorat banklarining birinchi darajali kapitali va uning tarkibiy qismlarining tahlili.
4. Tijorat banklarining ikkinchi darajali kapitali, uning tarkibi.



5. Tijorat banklarining birinchi va ikkinchi darajali kapitaliga ta'sir qiluvchi omillar tahlili.

6. Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi sharoitida bank kapitalining barqarorligi tahlili.

**2-topshiriq. Berilgan matnni o'qing va o'zlashtiring. Matn mazmuni asosida 10 minutlik "Esse" yozing va ma'ruza qiling.**

Xalqaro bank amaliyoti tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklari kapitalining samaradorligini va uning yetarliligini ta'minlamasdan turib, banklarning to'lov qobiliyatini mustahkamlash va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini qozonish mushkul vazifalardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, bank kapitalining mavjudligi bankni tashkil topishi va faoliyat ko'rsatishi uchun eng asosiy zaruriyatdan biridir. Aytish joizki, Amerika Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlangan, bugungi kunda butun dunyoni qamrab olgan jahon miqyosidagi tahlikali holatlar, texnogen hodisalar, ekologik global muammolar natijasida yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik va to'lov qobiliyati zaiflashib borishi kuzatilmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunda banklarning to'lov qobiliyatini mustahkamlashda bank kapitali va uning yetarlilik darajasi birlamchi zaruriy omil bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiy islohotlar va bozor munosabatlarining samaradorligini ta'minlashda tijorat banklari kapitalini shakllantirish va uning muvofiqligini ta'minlashga erishish muhim o'rin tutadi. Xalqaro bank amaliyotida bank kapitali va uning yetarliligini ta'minlash masalasiga to'xtalishdan oldin bank kapitalining iqtisodiy mohiyati to'g'risida to'xtalib o'tish joiz. Bank kapitali murakkab kategoriya sifatida "bank ishi"da muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, u bank faoliyatining boshlang'ich moliyaviy asosi va keyinchalik uning rivojlanishi, barqarorligi hamda xavfsizligini ta'minlovchi manba bo'lib hisoblanadi. Qisqa qilib aytganda, tijorat banki kapitali – bu bank faoliyatini moliyalashtirishning barqaror manbasi bo'lib, bankning operatsion jarayonida kutilmaganda yuzaga keladigan zararlarni qoplash imkonini beruvchi o'ziga xos himoya vositasidir. Bank kapitalining iqtisodiy mazmuni yanada to'liqroq u bajaradigan funksiyalarda

namoyon bo'ladi. Bank kapitalining quyidagi ikkita funksiyasini ajratib ko'rsatish mumkin: Himoya funksiyasi. Bank omonatchilari manfaatlarini himoya qilish bank kapitalining asosiy funksiyasi bo'lib xizmat qiladi. Chunki bank aktivlarining asosiy qismi omonatchilar hisobiga shakllantiriladi. Himoya funksiyasi zarar ko'rish xavfi tug'ilganda aktiv rezervlar shakllantirish yo'li orqali bankning to'lov qobiliyatini saqlab qolish, agarda bank tugatilganda omonatchilarga kompensatsiya to'lash imkoniyatini beradi. Bu esa, o'z navbatida, bankning keyingi faoliyatiga keng yo'l ochib beradi. Kapital o'ziga xos himoya yostig'i rolini o'ynab, yirik ko'zda tutilmagan xarajatlar sharoitida bank operatsiyalarini davom ettirish imkoniyatini beradi. Bank kapitalining mavjudligi uning ishonchliligi va likvidligining birinchi shartidir. Bank kapitali tartibga soluvchi funksiyani ham bajaradi. Bank kapitalini tartibga soluvchi funksiyasi bankning ssuda va investitsion operatsiyalarini chegaralashni nazarda tutadi. Bank kapitali yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarishi uchun quyidagi uchta xususiyatga ega bo'lishi lozim: U uzoq muddatli bo'lishi zarur (doimiy). Tijorat banklarining kapitali uzoq muddatli bo'lishi zarur deganda, asosiy e'tibor kapital egasining ushbu mablag'ni istalgan paytda talab qilish imkoniyatining chegaralanganligi nazarda tutilmoqda. Agar bank aktsiyadori istalgan paytda bank kapitalini shakllantirish uchun yo'naltirilgan mablag'ni to'liq yoki qisman qaytarib olsa, bank iqtisodiy jihatdan tang ahvolga tushib qolishi tabiiy. O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 25 aprelda qabul qilingan "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunida "Bank muassislari bank aktsiyadorlari tarkibidan u ro'yxatga olingan kundan boshlab bir yil mobaynida chiqib ketish huquqiga ega emaslar", deya qayd etilgan. Demak, tijorat banklari ustav kapitaliga qo'yilgan mablag'larni bir yil davomida erkin ishlatish huquqiga ega. Bank kapitali majburiy to'lovlarga tobe bo'lmasligi kerak. Tijorat banklari kapitalining majburiy to'lovlardan ozodligi bankning barqaror faoliyat yuritishiga keng imkoniyat yaratadi. Aksincha, bank kapitali soliq, penya va boshqa to'lovlar, shuningdek, bankning majburiyatlari bo'yicha tobe bo'lsa, uning iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va kapital doimo iqtisodiy jihatdan xavf ostida bo'ladi. Mazkur holat banklarga o'z nomidan moliya bozorlarida operatsiyalarni

amalg oshirishda, omonatchilar va investorlarni bankka jalb qilishda hamda aholining ishonchini ta'minlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bank kapitali omonatchilar va kreditorlarning huquqiy manfaatidan mustaqil bo'lishi lozim. Tijorat banklari moliyaviy vositachi sifatida omonatchilar va kreditorlardan juda katta miqdorda mablag'larni jalb etadi. Bank kapitali jalb qilingan mablag'larni qaytarish bilan bog'liq bo'lgan holatlar bo'yicha omonatchilar va kreditorlarning manfaatiga bevosita bog'liq bo'lmasligi zarur. Ya'ni omonatchilar va kreditorlarning bank kapitaliga nisbatan hech qanday qonuniy yoki bilvosita da'volari mavjud bo'lmasligi zarur. Tijorat banklari kapitali tarkibini oqilona shakllantirilishi bank kapitalining mustahkamligiga va uning yetarliligiga ijobiy ta'sir qiladi. Bugungi kunda dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida tijorat banklari kapitalining tarkibini shakllantirishda xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan standartlardan asos sifatida foydalanilmoqda.

Xalqaro Bazel qo'mitasining standartlariga asosan bankning jami kapitali asosiy va qo'shimcha kapitalga ajratiladi. Ushbu standartlar birinchi marta 1988 yilda ishlab chiqilib, amaliyotga 1993 yildan boshlab joriy etilgan. Bazel standartlariga ko'ra asosiy kapital quyidagi elementlardan tashkil topadi: Ustav kapitalining to'langan qismi (oddiy aksiyalar qiymati); - Muddatsiz nokumulyativ imtiyozli aksiyalar; - Emission daromad; - Sof foyda hisobidan shakllantirilgan zahira summalari; - Sof foyda; - O'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi. Shunisi e'tiborga molikki, xorijiy bank amaliyotida banklarda audit tekshiruvi o'tkazilib, audit xulosasi tasdiqlangunga qadar joriy yilning foydasi asosiy kapital tarkibiga kiritiladi. Audit xulosasidan keyin esa faqat taqsimlanmagan foyda kiritiladi. Xalqaro Bazel standartlari bo'yicha banklarning qo'shimcha kapitali tarkibiga quyidagi asosiy elementlar kiritiladi: Kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zahiraning riskka tortilgan aktivlar miqdorining 1,25 foizidan oshib ketmaydigan qismi; Qayta baholash zahirasi. Bunda bankka tegishli bino va inshootlar hamda yerning qiymatini qayta baholash natijasida yuzaga keladigan zaxira miqdori tushuniladi; Subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari. Konsolidatsiyalashgan sho'ba korxonalarini tashkil etish maqsadiga yo'naltirilgan

qo'yilmalar. Bazel andozalari bo'yicha konsolidatsiyalashgan sho'ba korxonalarida deganda bank qoshida tashkil etilgan, mustaqil balansga ega bo'lmagan kredit muassasalari (lizing, faktoring, trust, forfeiting kompaniyalari) ko'zda tutiladi. Respublikamiz tijorat banklarining kapital tarkibi Markaziy bankning 1998 yil 2 noyabrda tasdiqlangan 420-sonli «Tijorat banklari kapitalining yetarliligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi Nizomida quyidagicha keltirilgan: I - darajali kapital quyidagilardan iborat: - to'liq to'langan va muomalaga chiqarilgan oddiy aksiyalar, - nokumulyativ muddatsiz imtiyozli aksiyalar. Bu aksiyalar: - muayyan sotib olish sanasi va shartlariga ega emas; - egasining hoxishiga ko'ra sotib olinishi mumkin emas; - bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi qaroriga muvofiq ularga doir dividendlar to'lanmasligi mumkin; - ular bo'yicha o'tgan davrdagi olinmagan (nokumulyativ) dividendlar to'lanmaydi; - qo'shimcha kapital (kapitalning ortiqcha qismi) — oddiy va imtiyozli aksiyalar bozor narxining ularning nominal qiymatidan oshib ketishi; - taqsimlanmagan foyda: - kapital zaxiralar; - avvalgi yillar taqsimlanmagan foydasi; - joriy yil zararlari. Ozchilik aksiya egalarining birlashgan korxonalar aksiyadorlik hisobvaraqlaridagi ulushi. Bu ulush sho''ba korxonalarida hisobvaraqlari bank moliyaviy hisobotlarida umumlashtirilganda va bank ulushi bunday korxonalar kapitalining 100 foizdan kam qismini tashkil qilganda vujudga keladi. Bankning ustav kapitalidagi valyuta qismiga teng bo'lgan valyuta aktivlarini qayta baholanish hisobiga tashkil etilgan devalvatsiya zahirasi. II - darajali kapital tarkibi esa quyidagilardan iborat: - joriy yildagi sof foyda; - riskni hisobga olgan holda aktivlar summasining 1,25 foizi va hisobkitoblardan so'ng I darajali 100 foizli kapitaldan oshmagan miqdordagi umumiy zahira; - hisob-kitoblardan so'ng I darajali 100 foizli kapitaldan oshmagan miqdorda aralash turdagi majburiyatlar I darajali kapitalga kiritilmagan aralash turdagi majburiyatlar, jumladan, imtiyozli aksiyalar agarda ular quyidagi shartlarga javob bersalar, II darajali kapitalga kiritilishi mumkin; - to'liq to'langan bo'lishi kerak; - garov bilan ta'minlanmagan; - bank tugatilganda ularga doir talablar bank depozitorlari talablari qondirilganidan so'ng qondirilishi; - aksiya egasining tashabbusi bilan va oldindan olingan Markaziy bank ruxsatisiz to'lanishi mumkin emas; - bankning har qanday zararlarini qoplashi

va bankni to'lovga qobiliyatsiz deb e'lon qilish huquqini bermasligi; - agar bank oxirgi 3 chorak mobaynida foyda olmagan bo'lsa, emitent hohishiga ko'ra yoki oddiy va imtiyozli aktsiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishda ushbu majburiyatlarga doir dividendlarni to'lash muddati kechiktirilishi mumkinligi; - Subordinar qarz, bu bankning qarz majburiyatlari shakli bo'lib, bank kapitalini aniqlash maqsadida hisob-kitoblardan so'ng I darajali kapitalning 50 foizidan oshmasligi kerak. II darajali kapitalga kiruvchi subordinar qarz to'lash muddati etib kelgunga qadar oxirgi 5 yil davomida yiliga 20 foizga kamayib borishi shart. II darajali kapital tarkibiga kiruvchi subordinar qarz quyidagi talablarga javob berishi lozim: - garov ta'minotiga ega bo'lmaslik; - bank tugatilayotganda ushbu majburiyatlar bo'yicha talablar depozitorlar talablari qondirilganidan so'ng amalga oshirilishi; - boshlang'ich to'lov muddati 5 yildan ortiq bo'lishi lozim. Bank kapitalining bosh maqsadi – riskni kamaytirish, «himoya devori» sifatida zararlarni qoplab, bank to'lovga qobilligini saqlash imkonini berishdir. Shu bilan birga kapital bankni likvidlik muommasidan himoya qiladi va moliyaviy resurslar bozoriga kirish imkonini ta'minlaydi. Zero, yirik kapital bankka barqaror obro', omonatchilar ishonchini beradi. Bank kapitali mijozlarning bankka ishonchini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, bank kapitali - bu bank tijorat faoliyatining asosi bo'lib, uning mustaqilligini ta'minlaydi va moliyaviy barqarorligini kafolatlaydi hamda bank risklarining salbiy oqibatlarini engillashtiradi. Bank kapitali bank balansining passivida joylashgan bo'lib, bank bankrot holatiga tushganda da'volarni qoplashning muhim qoplash (zahira) fondi hamda bank operatsiyalarini rivojlanishi uchun moliyalashtirish manbasi bo'lib hisoblanadi. Bank barqarorligini ta'minlash, xavf-xatarlarli qo'yilmalarni sug'urtalash hamda aktiv va passiv operatsiyalar orasidagi chegaralarni aniqlashda bank kapitali muhim asos hisoblanadi. Bank kapitali likvidlikning kafolatlangan manbasi bo'lib, u maksimal jalb qilish mumkin bo'lgan resurslarni aniqlaydi va kredit operatsiyalarini bajarishda maksimum qo'yish mumkin bo'lgan xatarni belgilaydi. Banklarining o'z mablag'lari bank balansining uchinchi bo'limida aks ettiriladi. Odatda ularni bank kapitali deb ham atashadi. Bank kapitali tarkibi quyidagilardan iboratdir: - Ustav kapitali; -

Qo'shilgan kapital; - Zahira kapitali; -Joriy yilning sof foydasi; - Taqsimlanmagan foyda; Yuqoridagilarning har biri uning manbalari hisobga olingan holda bir necha elementlardan tashkil topadi (O'zbekiston Respublikasi Banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlari rejasining uchinchi bo'linga qarang). Bankning ustav kapitali asosan uning oddiy va imtiyozli aktsiyalarini sotishdan kelib tushgan mablag'lardan tashkil topadi. Qo'shilgan kapital bank aktsiyalarining real va nominal qiymatlari o'rtasidagi farqlardan tashkil topadi. Zahira kapitali bank daromadi hisobidan turli riskli aktivlarni qoplash uchun tashkil etilgan jamg'armalar, kichik korxonalarni imtiyozli kreditlash jamg'armasi, asosiy vositalar bahosi boshlang'ich qiymatidan o'sgan qismi kabilardan tashkil topadi. Taqsimlanmagan foyda o'tgan yilgi olingan foydaning taqsimlanmagan qismi yoki ko'rilgan zararlar hamda joriy yilning foyda yoki zarari hisobidan tashkil topadi.

Bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, xalqaro tajribani hisobga olgan holda, bank tavakkalchiligini baholashni takomillashtirish, tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishning zamonaviy tamoyillari hamda mexanizmlarini joriy etish maqsadida: 2017 yilning 1 oktyabridan ustav kapitalining (fondining) minimal miqdori yangi tashkil etiladigan: - tijorat banklariga - 100,0 mlrd.so'm; - mikrocredit tashkilotlariga - 2,0 mlrd. so'm; - lombardlarga - 500 mln.so'm etib belgilanishi nazarda tutildi. Tijorat banklari, mikrocredit tashkilotlari va lombardlar 2019 yilning 1 yanvarigacha ustav kapitallarining minimal miqdorlarini mazkur bandga muvofiq belgilangan minimal talablar darajasiga yetkazilishini ta'minlash belgilandi. Banklari kapitali ularning o'ziga "himoya yostiqchasi" vazifasini bajarilish bilan birga, bugungi kunda ular tomonidan uzoq muddatli investitsiyalar amalga oshirish va uzoq muddatli kreditlar ajratishning manbai bo'lib qoladi. Bank tizimining barqarorligini ta'minlash, bank kreditlari va omonatchilari manfaatlarini himoyalash, banklarning likvidliligi va to'lov qobiliyatlarini mustahkamlash nuqtai nazaridan, dastavval bank faoliyatini boshlash uchun Markaziy bank tomonidan bank kapitalining minimal miqdoriga talablar o'rnatilgan.

**Uyga vazifa.** Banklarda kapitalning yetarliligining minimal darajasi bo'yicha xalqaro va milliy talablarning me'yoriy-huquqiy asoslar yuzasidan tahliliy materiallar taqdimotini tayyorlash va taqdimot qilish (kichik guruhlarda, kamida 10 kishidan iborat holda bajarish mumkin).

### **Bank majburiyatlarini tahlili**

#### **1-topshiriq. Quyida berilgan savollarga qisqa matnda javob yozing.**

1. Bank majburiyatlarini tarkibiy tuzilishi.
2. Bank majburiyatlarining tarkibiy jihatdan tahlili.
3. Bank majburiyatlarining muddatlari jihatidan tahlili.
4. Bank majburiyatlariga ta'sir qiluvchi omillar.
5. Bank majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilishi ustidan nazorat.
6. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida majburiyatlar barqarorligini ta'minlash.

#### **2-topshiriq.**

Bankning jamg'arma va muddatli depozitlarining kamayib ketishi, uning depozit siyosatida kamchiliklar mavjudligini bildiradi. Jamg'arma va muddatli depozitlar bank uchun eng barqaror resurslardan hisoblanadi. Ularning barcha depozitlar hajmida salmog'ining qisqarishi bank depozit bazasining barqarorlik darajasining pasayib borishidan dalolat beradi. Bank tomonidan jamg'arma va muddatli depozitlarni jalb etish borasida muhim chora va tadbirlar belgilanishni talab etiladi. Boshqa banklar hisobraqamlarida pul mablag'larining kamayishi, ushbu bankning boshqa banklar bilan korrespondentlik munosabatlarining qisqarib borishini bildiradi. Olingan uzoq muddatli kreditlar salmog'ining kamayishi ularning o'z muddatlarida qaytarilganligini bildiradi. Lekin bank uning likvidligini ta'minlash, oldiga qo'ygan rejalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hollarda Markaziy bank va boshqa Banklarning uzoq muddatli kreditlariga doimo ehtiyoj sezadi. Talab qilib olinadigan depozit mablag'larining o'zgarmasligi ko'p hollarda uning mijozlari tarkibi va ular faoliyatida sezilarli darjada rivojlanish bo'lmaganligini bildiradi. Bank o'zining mijozlari tarkibini son va sifat jihatidan yaxshilab borishiga e'tibor qaratmog'i lozim bo'ladi.

**2-topshiriq.** Berilgan jadval asosida bank mablag'larini tahlil qiling va natijalariga xulosa yozing.

№	Ko'rsatkichlar	01.01.2015 y.		01.01.2017 y.		01
		Summa mln so'm	Salmog'i %	Summa mln so'm	Salmog'i %	
1.	O'z mablag'lari	3910 8,8		4100 9,1		
2.	Chetdan jalb etilgan mablag'lar	40510 91,2		41000 90,9		
3.	Jami:					

**3-topshiriq.** Berilgan matnni o'qing va mantiqiy tahlil qiling.

Bank majburiyatlari qoldig'i bank balansining ikkinchi bo'limida aks ettiriladi. Bank majburiyatlari ularning o'ziga xos-xususiyatlari, manbalari va muddatlari hisobga olingan holda asosan quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- Talab qilib olingunicha saqlanadigan depozitlar;
- Jamg'arma depozitlar;
- Muddatli depozitlar;
- Boshqa banklarning hisobraqamlari;
- Olingan qisqa muddatli kreditlar;
- Olingan uzoq muddatli kreditlar;
- Mijozlarning boshqa depozitlari.



Ushbu guruhlarga hisobvaraqlar, ularning manbalari nuqtai-nazaridan yana bir necha hisobraqamlardan tashkil topadi.

**4-topshiriq.** Bankning chetdan jalb qilingan mablag‘lari tarkibi va dinamikasini quyida berilgan jadval asosida tahlil qiling.

Balans hisob varag‘i	Ko‘rsatkichlar	01.01.2015 y.		01.01.2017 y.	
		Qoldig‘i mln so‘m	Salmog‘i %	Qoldig‘i mln so‘m	Salmog‘i %
20200	Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar	6100		6100	
20400	Jamg‘arma depozitlar	1140		1000	
20600	Muddatli depozitlar	7900		7700	
21000	Boshqa banklarning hisobraqamlari	4400		4100	
21600	Olingan qisqa muddatli kreditlar	3600		3900	
22000	Olingan uzoq muddatli kreditlar	15100		14600	
22600-29800	Mijozlarning boshqa depozitlari	2270		3600	
	<b>Jami</b>	<b>40510</b>		<b>41000</b>	

**Uyga vazifa.** Banklarda tahlil ishlarini tashkil etishning nazariy va uslubiy asoslari yuzasidam referat ko‘rinishida mustaqil ish tayyorlash.

### **10-mavzu. Tijorat banklari aktivlari holati va ulardan foydalanish tahlili**

#### **O‘rganiladigan savollar:**

1. Bank aktivlarining mohiyati va tahlil vazifalari.
2. Bank aktivlari holati ko‘rsatkichlarining tahlili.
3. Bank aktivlari tarkibining tahlili.
4. Bank aktivlarini daromadlilik jihatlari tahlili.
5. Bank aktivlarini risklilik darajasi bo‘yicha tahlili.

6. Bank aktivlaridan samarali foydalanish yo'llari.
7. Bank aktivlarining samarali foydalanish ko'rsatkichlariga ta'sir yetuvchi omillar tahlili.
8. Bank aktivlariga ta'sir yetuvchi omillar tahlili.
9. Moliyaviy koeffitsiyentlar.
10. Aktivlar sifati koeffitsiyentlari.
11. Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot tahlili, o'sish koeffitsiyentlari, balans hisobotini foizlar nisbatida tahlil qilish.
12. Balansdan tashqari moddalar tahlili.

**1-topshiriq.** Berilgan jadval asoida tijorat bankining daromad keltiruvchi aktivlari tarkibi va dinamikasini tahlilning taqqoslash usuli yordamida tahlil qiling:

№	Daromad keltiruvchi aktivlar	O'tgan yili		Hisobot yili		mln
		Qoldig'i mln so'm	Salmog'i %	Qoldig'i mln so'm	Salmog'i %	
1.	Davlat obligatsiyalari	55		55		
2.	Qimmatbaho qog'ozlarga qilingan investitsiyalar	40510 91,2		41000 90,9		
3.	Sotib olingan debitorlik qarzlari-faktoring					
	Kreditlar-jami:					
	shu jumladan: daromad hisoblanishi to'xtatilgan muommoli kreditlar;					
3.	Jami:					

**Mavzu: Tijorat banklarining kredit operatsiyalari va kredit portfeli tahlili (amaliy mashg'ulot)**

## 1-Topshiriq. Berilgan savollarga qisqa matnda javob yozing.

1. Tijorat banklari kredit portfelining tahlili.
2. Kredit portfeli diversifikatsiyasi tahlili.
3. Bank kreditlarining ta'minlanganligi tahlili.
4. Kredit hajmi va uning aylanuvchanligi tahlili.
5. Kreditlar bo'yicha foizlarning hisoblanishi, undirilishi va daromad hisobvaraqlariga o'tkazilishi tahlili.
6. Kreditlarning qaytarilishi tahlili.
7. Kredit monitoringi tahlili. rstrukturizatsiya qilingan muddati o'tgan kreditlar tahlili.
8. Banklarning muammoli kreditlari tahlili.
9. Tijorat banklarining kredit resurslaridan samarali foydalanishning tahlili.

**2-Topshiriq.** Tijorat banklarining kredit portfelini baholashda bank likvidligini aniqlash bo'yicha koeffitsentlar bilan tanishib chiqing va amaliy hisoblarni amalga oshiring.

Кoeffицентлар	Кo'rsatkichlar	O'rnatilgan optimal mezon	Izoh
K11 (to'la likvidlilik)	Likvid aktivlar/jami aktivlar	K1 $1 \geq 0,20$	Koeffitsent jami aktivlarda likvid aktivlar salmog'ini va jami passivlarniqancha foizini likvid aktivlar qoplay olishligini ko'rsatadi.
K12 (joriy likvidlilik)	Yuqori likvid aktivlar/talab qilib olinguncha va muddatli depozitlar	K1 $2 \geq 0,30$	Likvid aktivlar orqali majburiyatlarniqoalishini ko'rsatadi.
K13 (lahzalik likvidlilik)	Kassadagi naqd pul mablag'lari/talab qilib olinguncha majburiyatlar	K1 $3 \geq 0,25$	Kassadagi naqd pul mablag'lari orqali talab qilib olinguncha majburiyatlarnizudlik qoplanishini ifodalaydi.

Koeffitsentlar	Ko'rsatkichlar	O'rnatilgan optimal mezon	2019 yil 2-chorak	2019 yil 3-chorak
1	2	3	4	5
K11 (to'la likvidlilik)	Likvid aktivlar/jami aktivlar	$K11 \geq 0,20$	0,816	0,804
K12 (joriy likvidlilik)	Yuqori likvid aktivlar/talab qilib olinguncha va muddatli depozitlar	$K12 \geq 0,30$	0,366	0,442
K13 (lahzalik likvidlilik)	Kassadagi naqd pul mablag'lari/talab qilib olinguncha majburiyatlar	$K13 \geq 0,25$	0,066	0,104

#### Bank foydasi tahlili (ming so'mda)

№	Kategorii	2019 yil 2-chorak	2019 yil 3-chorak	2-chorakka nisbatan o'shazgarishi	
				Summasi	Ulushi, %da
1	Jami foizli daromadlar	821 083 155	843 109 893		
2	Jami foizli xarajatlar	449 797 974	559 258 325		
3	<b>Kredit va lizinglar bo'yicha ehtimoliy yotishlarni baholashgacha bo'lgan daromadlar (1-2)</b>				
4	Minus: Kredit va lizinglar bo'yicha ehtimoliy yotishlarni baholash	364 810 325	438 099 689		
5	Kredit va lizinglar bo'yicha ehtimoliy yotishlardan qolgan foizli daromad (3-4)				
6	Jami foizsiz daromadlar	364 428 895	676 030 382		
7	Jami foizsiz xarajatlar	67 980 948	143 939 420		
8	<b>Operatsion xarajatlargacha sof daromad (6-7)</b>				
9	Jami operatsion xarajatlar	151 507 188	231 678 490		

10	Kredit bo'lmagan ehtimoliy yo'qotishlarnilash	44 382 360	196 770 678		
11	Daromad solig'i to'langunga boshqa tuzatishlar kiritilgunga sof foyda (zarar) (8-9-10)				
12	Daromad (foyda) solig'i	42 760 193	56 659 788		
16	SOF FOYDA (ZARAR)(11-				

**Uyga vazifa.** Yuqorida berilgan jadval ma'lumotlariga tahliliy xulosa yozing va xulosa yozish tartiblari haqida taqdimot materialini tayyorlang.

### **Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar operatsiyalari tahlili.**

#### **1-topshiriq. O'rganiladigan savollarga yozma javob bering.**

1. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar operatsiyalari mohiyati.
2. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarining turlari.
3. Tijorat banki qimmatli qog'ozlar operatsiyalarining holati va tarkibining tahlili.
4. Banklarning andarrayting operatsiyalari tahlili. Banklarning brokerlik operatsiyalari tahlili.
5. Banklarning brokerlik operatsiyalari tahlili.
6. Moliyalashtirish operatsiyasi sifatida REPO bitimlarini hisobga olinishi tahlili.
7. Qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi operatsiyalari sifatida REPO bitimlari tahlili.
8. Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalaridan olinadigan daromadlari tahlili.
9. Qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bilan bog'liq xarajatlar tahlili.

2-topshiriq. Berilgan matnni o'qing va amaliyot o'tagan bankingiz misolida masalalar tuzing, tahlil qiling:

#### **Moliyaviy aktivlar uch toifaga bo'linadi:**

- 1) oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari;
- 2) so'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar;

3) sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar.

Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari qaqqoniy qiymati o'zgarishi foyda va zararlarda aks ettiriluvchi savdoga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar va bank balans hisobotida dastlabki tan olishda "oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari" deb tasniflangan moliyaviy aktivlarni o'z ichiga oladi.

Binobarin, oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari toifasida tasniflangan moliyaviy aktivlarning 2 ta ichki turi mavjud.

Moliyaviy aktiv yaqin kelajakda bevosita sotish maqsadida olingan bo'lsa yoki moliyaviy aktivlar portfeli tarkibiga kiritilgan bo'lib, bunda bank tomonidan bitta guruh singari boshqarilsa va yaqinda qisqa muddatli foyda ko'rishning haqiqiybelgilari kuzatilsa, u savdoga mo'ljallangan aktivlar singari tasniflanadi.

Bank biror-bir boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olishda, ularning hisobini haqqoniy qiymati bo'yicha yuritish maqsadida bo'lib, haqqoniy qiymatini ishonchli aniqlash mumkin bo'lsa va

haqqoniy qiymatidagi o'zgarishini foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda aks ettirish maqsadida bo'lsa, bank ularni "oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari" toifasida tasniflashi mumkin. Bunda bankning ushbu qarori keyinchalik o'zgarishligi lozim.

So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlari qayd qilingan yoki o'rnatilgan miqdordagi to'lovlar va qayd qilingan to'lash muddatiga ega bo'lgan moliyaviy aktivlar bo'lib, bunda bank ularni so'ndirish muddatigacha saqlash maqsadi va imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Banklar faqat so'ndirish muddatigacha saqlash maqsadi va imkoniyati mavjud bo'lsagina, qarz vositalarini "so'ndirish muddatigacha saqlanadigan" toifada tasniflashi lozim.

Banklar ulushli vositalarni "so'ndirish muddatigacha saqlanadigan" toifada tasniflamasligi lozim. Chunki, ulushli vositalar to'lash muddatiga ega bo'lmaydilar.

Banklar joriy yoki o'tgan ikki moliyaviy yil davomida katta miqdordagi so'ndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qog'ozlarni qoplash muddati kelgunga qadar sotgan yoki qayta tasniflagan bo'lsa, ularga ushbu moliyaviy aktivlarni "so'ndirish muddatigacha saqlanadigan" toifada tasniflash taqiqlanadi. Ammo, quyidagi holatlar bundan mustasno:

1) moliyaviy aktivning so'ndirish sanasiga qadar oz vaqt qolganda amalga oshirilsa. Chunki bozor foiz stavkasining o'zgarishi mazkur moliyaviy aktivning qolgan so'ndirish muddatigacha bo'lgan davr davomida uning haqqoniy qiymatiga sezilarli ta'sir qilmagan bo'lishi mumkin;

2) bank rejalashtirilgan to'lovlar asosida dastlabki asosiy qarz summasini to'la undirgandan keyin amalga oshirsa;

3) bank tomonidan oldindan ogohlantirishlar bo'yicha bankka bog'liq bo'lmagan va favqulodda xarakterga ega bo'lgan muhim hodisalar sababli hech qanday asosli harakat qila olmagan holda amalga oshirsa.

Banklar "oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari" yoki "so'ndirish muddatigacha saqlanadigan" toifalarda tasniflanmagan barcha moliyaviy aktivlarni "sotish uchun mavjud" qimmatli qog'ozlar toifasida tasniflashlari lozim.

Banklar moliyaviy aktivni bir toifadan boshqa bir toifaga o'tkazishda (misol uchun, "sotish uchun mavjud" toifadan "so'ndirish muddatigacha saqlanadigan" toifaga) ushbu aktiv yangi turdagi hisobvaraqda aks ettiriladi.

**Uyga vazifa:** Mavzu yuzasidan nazariy manbalarni o'zlashtiring va mavzuga tegishli tayanch iboralar qatorini tuzing.